

J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida ramzlar xususiyati

- The aims of the work are to find and analyze specific features of symbols in "The Lord of the Rings" and to highlight the importance of the symbols how these meaning influence the overall content of the work.
- The tasks of the dissertation are :
 - to study and analysis of the literature of that period;
 - critical analysis;
 - to read and explain meaning of this book;
- To identify and analyze the importance of fantastic genre in fiction

Hakimova Halimakhon Hamzayevna. Teacher of Bukhara State University



Globe
EDIT

Globe
EDIT



Hakimova Hamzayevna

J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida ramzlar xususiyati

J.R.R.Tolkinning "Uzuklar
hukmdori" asarida ramzlar xususiyati

Hamzayevna

Hakimova Hamzayevna

J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori"asarida ramzlar xususiyati

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

Hakimova Hamzayevna

J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori"asarida ramzlar xususiyati

**J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori"asarida
ramzlar xususiyati**

FOR AUTHOR USE ONLY

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-62401-7

Copyright © Hakimova Hamzayevna

Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUSTA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAKIMOVA HALIMAXON HAMZAYEVNA

**J.R.TOLKINNING “THE LORD OF THE
RINGS” ASARIDA RAMZLAR XUSUSIYATI**

FOR AUTHOR USE ONLY

Buxoro-2021

Ushbu monografiya J.R.Tolkin romanlarida ramzlar xususiyatlarini yoritilishi va yozuvchilarning ilmiy fantastika va fentezi janrdagi romanlar yozishdagi mahorati masalalariga bag'ishlangan.

Ushbu monografiya Angliya adabiyoti, Qiyosiy adabiyotshunoslik, Adabiyot nazaryasi, Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti kabi fanlarning tegishli o'rinlarini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, monografiyada zikr etilgan natijalar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug'atlar yaratishda foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir:

Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrası mudiri

f.f.n.**Yusupova H.O'.**

Taqrizchilar:

f.f.n dotsent **Toshev Z.B.**

f.f.n. dotsent **Yusupova H.O'.**

Monografiya Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2021-yil _____dagi yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

KIRISH (ISHNING UMUMIY TAVSIFI)

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda islohotlar davrida jamiyat ma'naviyati asosi sanaladigan adabiyotga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda va kitobxonlikka alohida e'tibor berilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 3-aprel kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 tashabbusni amaliyotga joriy etildi".¹ Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasi to'rtinchi tashabbus maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu tashabbus zamirida yoshlarni badiiy adabiyotga qiziqitirish, adabiyotni tahlil qila olish, tegishli xulosalar chiqarish, yoshlar tafakkurini kengaytirish maqsad qilib olingan. Insonlar hayotida estetik vazifalar bajarganligi ham adabiyotshunoslik sohasining chuqurroq o'rganilishi va uning boy tarixiga nazar tashlash uchun yaxshi sabab bo'lib xizmat qiladi. Har bir millat o'zining madaniyati bilan farqlanar ekan, bunda adabiyotning o'rni beqiyos.

Shu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlarini keltirib o'tmoqchimiz. "Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz".²

Badiiy adabiyotda ramz keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo'lib, aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamlarning ko'z oldida yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. Toshkent. 2019. – 16 b.

² O'sha manba. –79 b.

Umumta'lim maktablari uchun yaratilgan adabiyot darsliklarida ramz va ramziy obrazlilikka quyidagicha nazariy ma'lumot beriladi: "Ramz –ko'chimning keng tarqalgan turlaridan biridir. O'quvchi anglashi murakkabroq bo'lgan mavhum axloqiy sifatning shu sifatlarga ko'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishiga ramz deyiladi. Ramz adabiyotshunoslik fanida timsol yoki simvol atamalari bilan ham yuritiladi. Asarlarda yozuvchilar ramz(simvol)lar orqali badiiy bo'yoqdorlikni oshiradilar. Asarlardagi ramziylik kitobxonni tahlil qilishga, ma'nan boyishiga olib keladi.

Oddiy ko'ringan narsa-buyum, belgi, rang va kiyimlar orqali ijodkor ramziylikni ko'rsatib beradi. Bu albatta, keng dunyo qarash, teran fikrlash orqali yoritiladi.

Bu esa har bir adabiy tur hamda janrning o'ziga xosligi, tasvir ko'lami hamda mazmuni, syujeti va kompozitsiyasidan kelib chiqadi. Ingliz hamda o'zbek adabiyotida shunday bir qiziq hodisalardan biri-ilmiy fantastikaning tug'ilishidir.

"Fantaziya" tushunchasining o'zi juda keng va murakkab, shu bilan birga nisbiy xarakterga ega. Bu tushunchaning kengligi turning xilma-xilligi bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi. Fentezi to'g'risida gapirganda, biz ilmiy sarguzasht va noilmiy fantastikani tushunamiz. Zotan, badiiy asardagi fantastik elementlarning o'rni yozuvi dunyoqarashi, janr g'oyaviy estetik omillar, shuningdek, yozuvchi niyatining amalga oshiruv usullari va xarakteri orqali aniqlanadi. Umuman, ilm-fanda fantastikani ikki asosiy guruhga tasnif etish qabul qilingan. Bu ajratish fentezi qay yo'sinda, qay usulda yaratilganiga qarab tasnif etiladi. Alabatta, bu tasnifni o'zi nisbiydir. Bularning birinchisi, fan va texnika yordamida inson yoki tabiat tomonidan yaratiladigan g'aroyib hodisa va narsalar bo'lib hisoblanadi. Ikkinchisi, g'aroyibotlar g'ayri-tabiiy kuchlar tomonidan yaratiladi.

Albatta, fentezi qanday shaklda namoyon bo'lmasin va shakllanmasin, u birinchi navbatda real haqiqatni anglash, olamning, borliqning paydo bo'lish sir-asrorlarini tushuntirishga intilish shakli sifatida paydo bo'lgan. U o'zining butun

tarixiy rivojlanish jarayonida hayotni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli sifatida shakllandi va inson ongining o'sishi bilan bog'liqlikda juda murakkab hamda davomiylikdagi rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

Shubhasiz, fentezi adabiyotning shakllanish sargashlarida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, xususan, J.Vern asarlarining paydo bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Zero, J.Vern asarlarida hali hayotda, turmushda bo'lmagan, keyinchalik amalga oshgan ko'plab kashfiyotlar, ixtirolar hamda tasvirlar ifoda etiladi. Zero, uning birgina "Kapitan Nemo" asarida suv osti kemasi, suv osti skafandrlarining tasvirlanishi keyinchalik texnik ixtirolarning yaratilishiga olib kelgan. Demak, badiiy fantastika hali inson qo'li, aqli yetmagan koinot deb atalish buyuk ummonning cheksiz galaktikalarning ehtimoldan uzoq yoki yaqin bo'lgan sir-sinoatlarini, asrorlarini tasvirlash qudratiga ega.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida badiiy asarni baholash, ijodkor laboratoriyasini yangicha tahlillar va kuzatishlar bilan o'rganish, xususan, butun asarni o'rganish chog'ida ramz (simvol) va bosh qahramon atrofida jamlangan muayyan syujet, janrga xos yangicha ijodiy izlanishlarni tatqiq etish ishlari muhim rol o'ynaydi. So'ngi yillarda adabiyotshunoslikda ramz (simvol)ning uslubiy rang barangligini oshirishga xizmati o'ziga xoslik kasb etishi masalalarini yoritishga e'tibor qaratilmoqda. Bosh qahramon oldida tasvir va ifodadagi betakrorlik va talqin qilingan obrazning rang-barangligini oshirishda simvollarning xususiyati beqiyos.Jumladan, M.D.Droutning "Rings, swords and monsters: Exploring fantasy literature" narsa-buyum ramziyliklarni aks ettirgan. L.N.Mironovanning "Цветоведение" kitobida rang ramziyliklari yoritilib berilgan. Blumning "Modern Critical Views" kitobida Tolkinning tanqidiy qarashlari, fentezi janri va ilmiy fantastikaning farqli jihatlari yoritilgan. Don Damassaning "Fantasy and horror fiction" manbasida biz ilmiy fantastikaning qachon yuzaga kelganligi va o'ziga xos jihatlari ta'kidlangan.

B. Rozberining "Tolkin: A Critical Assessment" ilmiy maqolasida asarlariga berilgan tanqidiy qarashlarga misollar keltirib fikrlarini asoslagan. A.Seniorning

“Variations on the Fantasy Tradition” kitobida ilmiy fantastik asarlar ko’rsatilgan.

Bu esa inson ruhiyati va ma’naviy olamini turli ta’sirchan va ishonarli tahlil etishga imkon beruvchi turfa uslubi- shakliy yo’nalishlarning kengayishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Ushbu dissertatsiyasining maqsadi J.R.Tolkinning “The Lord of the Rings” asardagi rang ramziyliklari va ularning qahramon bilan bog’liqligi hamda asardagi narsa-buyum ko’rinishidagi ramz(simvol)larning asar rivojidagi xususiyatlarni o’rganish va tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, ishimiz o’z oldiga quyidagi vazifalarni qo’yadi:

- XX asr ingliz adabiyotini o’rganish va tahlil qilish;
- Angliya yozuvchisi Jon Ronald Ruel Tolkin hayoti va ijodiy faoliyatini biografik tahlil qilish;
- Rang ramziyliklari va ularning qahramonlar bilan bog’liqligini tahlil qilish;
- Narsa-buyum ko’rinishidagi ramzlarning asar rivojidagi o’rni yoritib berish;
- J.R.R.Tolkinning “The Lord of the Rings” (Uzuklar hukmdori) asarining yaratilish tarixi va badiiy personajlar va narsalar simvolik galereyasini adabiy tahlilga tortish;
- Ilmiy fantastika va fentezi janrining farqlarini o’rganish;
- O’rganilgan va tahlil qilingan ilmiy muammolar doirasida tegishli xulosalar chiqarish;

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti Jon Tolkinning “The Lord of the Rings” asari asliyat nusxasi tashkil etdi. Asarda keltirilgan ramzlarning xususiyatlarini tahlil qilish ishimizning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologik asosi va uslulari. O’zbekiston Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ilm-fan, ta’lim-tarbiya, chet tillarini o’rganishga doir asarlari va farmonlari, soha mutahassislarning mavzuga doir fundamental asarlari ushbu tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil qiladi.

Biz tadqiqotimizning mavzusini yaratishda tavsifiy metod, qiyosiy metod, tahliliy va statistik metodlardan keng foydalandik.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi. Mamlakatimizdajahon adabiyotining durdona asarlari, shu jumladan badiiy jihatdan yuksak asarlar qatoriga kirgan Angliya yozuvchisi J.R.Tolkinning “The Lord of the Rings” romanidagi ramzlar xususiyatinafaqat o’zbek, balki jahon adabiyotshunosligida o’rganilgan emas. J.R.Tolkinning “The Lord of the Rings” asarida ramzlarning xususiyatlari hali tadqiq qilinmagan, ya’ni mutlaqo yangi mavzu hisoblanadi. Ushbu asarda qo’llanilgan turli ramzlar xususiyatlarini tahlili ilmiy ishimizning yangiligini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqi. Ushbu tadqiqot Oliy Ta’lim Muassalarining bakalavr bosqichi talabalarning “Tili o’rganilayotgan mamlakat adabiyoti”, “Matn tahlili”, “Adabiyot nazaryasi” va “Adabiy-badiiy tahlil” fanlarini o’qitishda, ularga oid darslik, o’quv, o’quv-uslubiy qo’llanmalar, o’quv metodik majmualar yaratishda va nashr qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, kelgusi bitiruv malakaviy ishlarini yoritishda nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

Ish tuzilishi va tarkibi. Ushbu monografiya kirish, uch bob, boblar ichida olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tashkil topgan bo’lib, ishning umumiy hajmi 102 sahifadan iborat.

I Bob. Adabiyotda ramzlar va ularning ma’no ifodasi

1.1. Ramzlar xususiyati folklorda

Simvolizm (ramziylik) –adabiyotda XIX asrda paydo bo’lgan. Simvolizm adabiyotda ishlatilganda obyektning asl ma’nosidan tashqari unga yana bir ma’no biriktirilishini anglatadi. Metafora, allegoriya simvolizmni rivojlanishiga yordam beradi. Ramzlar ranglar, obyektlar orqali ifodalanadi. Ko’plab yozuvchilar o’z asarlarida ramzlar orqali turli xil o’yga botadigan ma’no va

mazmun yaratishga intilishadi. Ba'zi holatlarda, hatto obyekt, rang, shaxs yoki vaziyat odatdagidan ancha farqli fikrlarni aks ettiradi. Masalan, "tabassum" do'stlikning ramzi hisoblanadi. Boshqa tomondan, bironing sizga qarab jilmayishi, u kishining sizga bo'lgan iliqligini his qilish ramzi bo'lishi mumkin. Oddiy misol uchun "yomg'ir" ni oling. Yomg'ir - bu osmondan tushayotgan suv hodisasi. Buning uchun boshqa hech narsa yo'q. Shunga qaramay, adabiyotda odatda yomg'ir tushkunlik yoki qashshoqlikni anglatadi. Hatto filmlarda ham o'ta achinarli holatga duch kelgan odamlarni yomg'ir ostida nima qilayotganlarini tushunmay yig'layotganini ko'rgan bo'lishingiz mumkin. Bunday sharoitda yomg'ir odamning ichki qayg'usini hamda uning qalbida sodir bo'layotgan hissiy bo'ronni ko'rsatadi. Masalan, "zanjir" "birlashish" va "qamoq" ning ramzi bo'lishi mumkin, demak, obyekt yoki harakatning ma'nosini qachon, qayerda va qanday ishlatilishini tushunish mumkin. Bu shuningdek o'quvchining tasavvuriga bog'liq. Ramzlar yozuvchilar tomonidan ko'pincha o'z asarlarini kuchaytirish uchun ishlatiladi. Ramziylik adabiy asarga farovonlik baxsh etishi va rang asar ma'nosini yanada chuqurlashtirishi mumkin.

Muallif ma'lum bir xulq-atvorni yoki his-tuyg'ularni namoyon qilmoqchi bo'lsa, u buni oddiy so'zlar bilan emas, balki ramziy ma'noda ham yoritishi mumkin. Adabiyotda simvolizm turli shakllarda bo'lishi mumkin, shu jumladan;

- Obyekt, shaxs yoki vaziyat uning tom ma'nodagi mazmuniga emas, balki boshqa ma'noga ega bo'lgan nutq figurasi.
- butun hikoya tarkibida keng ma'noga ega bo'lgan belgi, so'z, harakat yoki hodisaning bajarilishi.

Metafora - bu simvolikani ishlatadigan nutq figuralaridan biridir. U taqqoslanmaydigan ikkita obyektни o'xshash qiladi va ularning umumiy jihatlarini borligini tasvirlaydi. Metafora so'zga qo'shimcha ma'noga ega. Bu uni ramziylikning namunasiga aylantiradi. Misollar:

- Vaqt - bu pul: bu bizni vaqtimizni behuda sarflayotganimiz va vaqt bilan boshqa narsa qilish imkoniyatidan voz kechishimiz haqida ogohlantiradi. Pul kabi vaqt cheksiz emas.

- Sevgi - bu marvarid: sevgi kamdan-kam va qimmatli ekanligini anglatadi.

Ko'pgina serqirra ijodkorlar dastlab universal mavzular uchun ahamiyatsiz bo'lib ko'rinishi mumkin bo'lgan ba'zi narsalarni bog'lash uchun simvolizmdan foydalanishadi. Ramzlar orqali asar g'oyalari rang-barang jilolanadi. Hozirgi kundalik hayotimizda ham ramzlardan har doim foydalanamiz. Bugungi kunda odamlar uchun ramzlar alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ba'zi kompaniyalar o'zlarining brendlarini namoyish etganda, mashhur sport jamoalari o'zlarining embelemalarida hayvon yoki qushni qoyish orqali, davlat bayroqlaridagi ramzlardan tortib oddiy to'y ma'rosimida kuyov kelinga uzuk berishi orqali bir-biriga sadoqat, muhabbat ma'nolarini kasb etadi. Ramzlarga misol tariqasida:

Oq kabutar- tinchlik ramzi;

Amerika bayrog'i – o'n uchta qizil va oq chiziqlar- o'n uchta mustamlakani, ellikta yulduz va ellik shtatning ramzidir;

Olimpiya o'yinlarning bayrog'idagi halqalar besh qit'adan sportchilar ishtirok etishining ramzidir.

Simvolizm (ramziylik) –ko'pincha yozuvchilar tomonidan o'z asarlarini takomillashtirish uchun ishlatiladi. Simvolizm adabiy asarni gullab-yashnashi vaasarning ma'nosini yanada rangliroq qilib, chuqur his qilinishiga yordam beradi. Simvolizm yozuvchiga o'z asarida ikkinchi darajali ma'nolar qo'shish uchun erkinlik beradi: o'z-o'zidan ravshan va ma'nosi tom ma'nodanancha chuqurroq bo'lgan ramziylikni aks ettiradi. Shunday qilib, simvolizm adabiyotning personajlari va mavzulariga universallik beradi. Adabiyotdagi ramziylik orqali o'quvchilarning qiziqishlarini uyg'otish mumkin, chunki ular yozuvchining dunyoga qanday qarashiga, kengroq ma'noga ega bo'lgan umumiy narsalar va harakatlarga bo'lgan munosabati to'g'risida tushuncha olish imkoniyatini beradi.

Ramzlar dunyoning turli mamlakatlarida, qadimgi afsonalarda va diniy matnlarda ishlatilgan. Simvolizmga yana bir mashhur misollaridan biri-Adan

bog'idagi voqea bo'lib, unda ilon Momo Havoni ta'qiqlangan xurmo daraxtidan xurmo yeyishga ko'ndirganligidir. Ushbu hikoyadagi ilon "yovuzlik" ramzini anglatadi. Simvolizm adabiyotning turli janrlarida jumladan she'riyatda, nasrda, pyesalarda, shuningdek, ilmiy fantastikada keng foydalaniladi. Masalan, "Harry Potter"(Garri Pottir) asaridagi Garrining chandig'i- "tanlanganlik", "yovuzlikni yengish qobiliyati" ramzidir. Bunday misollar biror bir adabiyotni tahlil qilganda, asarning asosiy belgilarini o'rganish orqali ko'pincha asarning o'zi haqida ko'proq tushunchalar bilan boyitilganligini kitobxon tez anglaydi.

Ramz (arabcha — ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) — voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'pma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Masalan, sher — mardlik, tulki — makkorlik, bo'ri — ochko'zlik va boshqa Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud; gul — go'zallik, ma'shuqa; bulbul — oshiq; sariq rang — mahzunlik, qora rang — motam ramzi va boshqa Ijodkorlar an'anaviy Ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (Mas, bulut, buloq, chaqmoq va boshqalar)dan ramziy tasvir uchun foydalanadilar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma'noga ega bo'ladi.³

Xalq og'zaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng ko'lamda ishlatilgan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Ramz (simvol) – grekcha “syumbol” so'zidan olingan bo'lib, qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olish uchun qo'llanilgan shartli belgini anglatgan. Badiiy adabiyotda ramz keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo'lib, aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamlarning ko'z oldida yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi. Umumta'lim maktablari uchun yaratilgan adabiyot

³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1- jild. Toshkent, 2000. –12 b

darsliklarida ramz va ramziy obrazlilikka quyidagicha nazariy ma'lumot beriladi: "Ramz –ko'chimning keng tarqalgan turlaridan biridir. O'quvchi anglashi murakkabroq bo'lgan mavhum axloqiy sifatning shu sifatlarga ko'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishiga ramz deyiladi. Ramz adabiyotshunoslik fanida timsol yoki simvol atamalari bilan ham yuritiladi. O'zbek adabiyotida may-hayot ramzi, chumoli- mehnatsevarlik, gul- ma'shuqa ramzi, burgunt-mag'rurlik ramzi va h.k. tarzida qadimdan qo'llanib kelingan".⁴

Simvolizm - "yangi san'atning uchta asosiy elementi: mistik tarkib, ramzlar va badiiy sezgirlikning kengayishi ...", "fikrlar, ranglar va tovushlarning yangi kombinatsiyasi" bilan ajralib turadigan modernizmning yo'nalishi demakdir.⁵

Simvolizmning asosiy tamoyili – hissiy idrok chegaralaridan tashqaridagi obyektlar va g'oyalarning mohiyatini ramzlari orqali badiiy ifoda qilish demakdir. Fransiyada 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. XIX asrda (dastlab adabiyotda, so'ngra san'atning boshqa shakllarida - vizual, musiqiy, teatr) va tez orada boshqa madaniy yo'nalishlarda- falsafa, din, mifologiya shu jumladandir. Simvolistlarning eng sevimli mavzulari hisoblangan - o'lim, sevgi, azob-uqubatlar, har qanday hodisalarni oldindan sezish orqali, syujetlar orasida xushxabarlar, tarixiy sahnalar, o'rta asrlarning yarim mifik va yarim tarixiy voqealari qadimgi mifologiya ustunlik qilganligini isbotlaydi.

Shunday qilib, muallif yoki shoir bitta obyektдан mutlaqo boshqa g'oyani nazarda tutganida simvolizmdan foydalanadi.

Hech qanday ramziylikni aks ettirmagan asarini adabiyotda topish qiyin. Simvolizm murakkab rivoyatlar yaratish uchun muhim adabiy vositadir, chunki u yozuvchilarga muhim ma'lumotlarni to'g'ridan- to'g'ri bayon qilmasdan turib yetkazish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, ramziylikdan foydalanish keng tarqalgan, chunki u:

⁴ Adabiyot nazaryasi. 1-jild. Toshkent, 1987. –59 b.

⁵ O'sha manba. –62b.

- O'quvchilarga murakkab tushunchalarva markaziy mavzularni tasavvur qilishda va ularning rivojlanishini kuzatishda yordam beradi;

- Yozuvchilarga katta g'oyalarni samarali va mohirona yetkazish imkoniyatini beriladi;

- O'quvchilarga muallif nimani aytmoqchiligini emas, balki matnni mustaqil izohlashga, taxlil qilishga yordam beradi;

- Matnga hissiy vazn qo'shadi;

- Zid bo'lgan munozarali mavzularni ochiqchasiga ko'rsatib beradi.

Muallifma'lum bir kayfiyatni yoki hissiyotni namoyish qilmoqchi bo'lsa, u shunchaki oddiy gapirishdan ko'ra, uni ochib berish uchun simbolizmdan ham foydalanishi mumkin. Adabiyotda ramziylik ko'p shakllarga ega bo'lishi mumkin, shu jumladan;

- Obyekt, shaxs yoki vaziyat uning tom ma'noda emas, balki har xil ma'noga ega bo'lgan nutq shakli orqali;

- Butun hikoya tuzilishida ko'proq ma'noga ega bo'lgan belgi, so'z, harakat yoki voqeaning ijrosi orqali.

Metafora–bu ramziy ma'noni ochib berish uchun ishlatiladigan nutq figuralaridan biridir.U taqqoslanmaydigan ikkita obyekttni taqqoslaydi va ularning umumiy jihatlari borligini tasvirlaydi.Metaforaningqo'shimcha ma'nolaridan biri so'z hisoblanadi. Quyidagi simbolizimgamisol bo'la oladi.

Tolkinning “Uzuklar hukmdori” asarining qahramonlaridanhisoblangan Frodo, Gendelf kabi qahramonlar va ularning guruhlar o'z kuchlariga ega bo'lib, dunyoni qutqarish uchun kurashga qo'shilishadi”.⁶

XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Evropa san'atidagi adabiy va badiiy yo'nalish, tasavvuf, ramzlar, allegoriyalar, umumlashmalar, maxsus uyushmalar yordamida yangi yuksak qadriyatlarni anglashga intilish boshlandi. Bu XIX asrning ikkinchi yarmidagi ko'plab Evropa rassomlarini haqiqatdan subyektivlikka, tasavvufga o'tish yo'lga chorlagan Evropamadaniyatining inqirozi natijasida paydo bo'ldi. Sofgo'zallik va sof estetika izlash istagi

⁶ Tolkien, J.R.R. The Fellowship of the Ring. New York: Houghton Mifflin. 1999. – 233 p.

ramziylikni romantizm va "san'at uchun san'at" yo'nalishining davomi bo'ldi. Simvolizmning nazariy ildizlari A.Shopenxaur va E.Xartmanning falsafasi, R.Vagnerning ijodi, F. Nitsche hayoti va intuisiya falsafasiga borib taqaladi. Ramziylik estetikasi fransuz shoirlari Stefan Mallarme, Artur Rimbaud, Pol Verlen va Charlz Bodleerning asarlarida shakllandi, ularning "Yovuzlik gullari" she'rlar to'plami birinchi bor yangi uslubdagi san'at asariga aylandi.

"Simvolizm" atamasi birinchi marta 1886 yilda shoir J.Moreas tomonidan ishlatilgan. Simvolistlar aql va oqilona mantiq "yashirin voqelik", "ideal mavjudotlar" va "abadiy go'zallik" dunyosiga kira olmasligiga ishonishgan. Bunga faqat san'atgina qodir - ijodiy tasavvur, she'riy sezgi va mistik tushuncha tufaylidir. Simvolistlar she'riy belgi- badiiy obrazdan ko'ra dunyoni yanadasamarali bilish imkonini yaratadi deb ishonishadi. Ularning ikkalasi ham insonning dastlabki ezguliklarga ishonishdan va jamiyatni oqilona tashkil etish imkoniyatidan voz kechdilar. Uni zamonaviy Evropa madaniyati inqirozida, yovuzlik va illatlarga ustunligi bilan ayblashdi. Pozitivizmga, naturalizmga va ratsionalizmga qarshi norozilik bildirgan simvolistlar adabiyot, rasm, musiqa, she'riyat tilidan foydalanib, sho'irning ichki hayoti abadiy go'zallikning mutlaq, real bo'lmagan dunyosiga yaqin bo'lgan she'riy nutqda mujassamlashganiga ishonishdi. Shuning uchun, simvolistlar san'atni hissiyot bilan emas, balki aql bilan tushunadigan narsadan ozod qilishga intilishdi. Ular tushunib bo'lmaydigan semantik bog'lanishlarni, psixologik holatlarni qidirishga, yozishmalar va o'xshashlarni topishga harakat qildilar. Shu sababli, simvolizm tasvirlarning noaniqligi, metafora va uyushmalarning o'yinlari keng tarqalgan bo'lib, ataylab noaniqlikka, shifrlangan tarkibga, tasvirlarning bo'rttirilgan ekstaziyasigacha etadi. Shuningdek, simvolistlar musiqiy elementni hayot va san'atning asosi deb hisoblashgan. Shuning uchun ular turli xil san'at asarlarini sintez qilish uchun Vagnerga ergashib, she'rni musiqiy kompozitsiya tamoyillari bilan boyitdilar. Simvolistik dunyoning manzarasi arxaik muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ramzlar tizimi edi. Bu asosan neoplatonik va xristian tinchlik va madaniyatning ramziy tushunchalarini eslatib turardi.

Simvolizm harakati modernizmning eng yorqin va ko'zga ko'ringan yo'nalishlaridan biri bo'lib, san'at, she'riyat, musiqa va adabiyot rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning o'ziga xosligi shundaki, hayotning o'zgaruvchanligini va mutlaq haqiqatni qidirishni ko'rsatadigan ma'lum bir belgidan foydalanish o'rniga.

1.2 Ilmiy fantastika va fentezi janrining farqli jihatlari

Ilmiy fantastika janriga to'xtalishdan oldin, "fantastika" so'zining o'ziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "fantastika" yunoncha "phantastike" so'zidan olingan bo'lib, xayol qilish san'ati, qobiliyati degan ma'nolarni anglatadi. Fantastika- xayolda, tasavvurda tug'ilgan, g'aroyib, g'ayritabiiy hodisa, obraz hamda ularning xayoliy tasviri bo'lib hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda uni ikkiga, ya'ni ilmiy va badiiy fantastikaga bo'lib o'rganishadi. Bu janrning atqoli vakili Jyul Vern romanlarini "ilmiy", boshqa bir mashhur yozuvchi esa "fantastik" deb hisoblagan. Rus olimi, fan targ'ibotchisi Yakov Perelman 1914-yili "Vaznsiz oshxonadagi nonushta" nomli hikoya e'lon qiladi va uning janrini "ilmiy fantastika" deb belgilaydi. Perel manga qadar shunga o'xshash atamani taniqli rus yozuvchisi Aleksandr Kuprin ishlatgan. U "Rudyard Kipling" (1908) nomli maqolasida Gerbert Uells va boshqa mualliflarning asarlarini "Ilmiy fantastik sayohatlar" deb atagan. Ilmiy taxayullot yoki ilmiy fantastika ilg'or fan-texnika mavzusiga bag'ishlangan badiiy adabiyot janridir.⁷ Oddiy fantastik asar tasvirlayotgan olamidagi fenomenlarning ilmiy asoslanishi bilan farq qiladi. Ilmiy fantastik asarlarda mavjud ilmiy qonunlar buzilmaydi, ya'ni sehr aralashmaydi, biroq ba'zi kelajakda aniqlanishi va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tezislariga ham ishora qilinadi. Masalan, yo'rug'lik tezligidan-da tezroq parvoz, vaqt sayohati, o'zga sayyoraliklar va hokazo. Ilmiy fantastika kelajak ilmiy texnologiyalari, koinotga sayohat, vaqt oralig'idagi sayohat, yorug'likdan-da tezroq va mukammalroq bo'lgan, parallel dunyolar va insoniyat dunyosidan tashqaridagi hayot kabi xayoliy tushunchalar bilan shug'ullanuvchi xayoliy

⁷ Ибрагимова.Р.Г. Жанр научной фантастики в узбекскойисоветской литературе. Ташкент,1987. – 27 с.

to'qima janri hisoblanadi. Ilmiy fantastik janr odatda ilmiy va boshqa innovatsiyalarning ehtimoli yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarini tadqiq etadi va bu "Fikrlar adabiyoti" deb aytiladi. Bu janr g'ayrioddiy voqealardan qochadi va fantastik janrga o'xshamagan holda tarixan yaratilgan fanda ilmiy-fantastik hikoyalar ilmiga, fakt va nazariyaga asoslangan. Ammo bu bog'lanish hozirda ancha cheklangan bo'lib, murakkab ilmiy fantastika deb aytilishini qayd qilib o'tish joizdir. Ilmiy fantastik janrning xususiyatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, avvalo, bu janr xayolotga asoslanganligini eslatib o'tish joizdir. Birinchi navbatda ilmiy fantastik asar xususiyatiga asarda makon hamda zamonning g'ayrioddiy, boshqacha yoki yiroq ekanligining guvohi bo'lamiz. Ilmiy-fantastika janrida ijod qiluvchi yozuvchilarning asosiy vazifasi bu dunyo haqida biz o'quvchilarda tasavvur uyg'ota bilishdir. Bu dunyo kelajakda, tarixda yoki boshqa bir sayyorada bo'lishi mumkin. Fantastika haqida gapirmay turib, ilmiy-fantastika haqida tasavvurga ega bo'lish qiyin. Bu ilmiy fantastik asarni oddiy fantastikadan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlardan biridir. Ilmiy fantastik asarda o'zga sayyoraliklar yoki g'alati mavjudotlarning bo'lishi bizga yot bo'lib ketgan. O'zga sayyoraliklar inson bo'lmagan mavjudotlar orasida uchraydigan obrazlardir. Ammo ilmiy fantastik asar faqatgina o'zga sayyoraliklar haqida degan xayoldan yiroq bo'lishimiz kerak. Asar robotlar yoki tashqi tomonidan odamzotga o'xshab ketadigan mavjudotlar (Frankenshteyn odamxo'r singari) haqida bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Ilmiy fantastika, boshqacha qilib aytganda, insoniylikning cheklovlarini ochib tashlash, fosh qilishga qaratilgan adabiy janr turi. Balki insoniyat dunyosidan tashqaridagi hayotda yashaydigan mavjudotlar bordir. Ularda ham insondagi kabi his-tuyg'u bor bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Faqatgina insonga emas, inson bo'lmagan mavjudotlarga ham o'z e'tiborini qaratib, ilmiy fantastika janrida ijod qiluvchilar muxlislarini asar voqealariga jalb qila oladilar.

XX asrda ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin fan va texnika jamiyatning rivojlanishida beqiyos darajada ulkan rol o'ynay boshladi. Bu esa o'z navbatida, ilmiy-fantastikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

Atom va yadro jarayonlarini boshqarish, elektronika, kibernetika, genetika, singari fanlarning rivojlanishi, koinotning inson tomonidan o'zgartirishi kabi tarixiy voqealar ilmiy fantastikaning to'g'ri yo'ldan borayotganligidan dalolat beradi. Zero, undagi ilmiy farazlar fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini to'g'ri belgilab bermoqda edi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ilmiy fantastika bugungi kunda fan-texnika muammolari doirasidan chiqib, ijtimoiy-falsafiy masalalarni ham qamrab olmoqda. "Fantastika" tushunchasining o'zi keng va murakkab, shu bilan birga nisbiy xarakterga ega. Bu tushunchaning kengligi turning xilma-xilligi bilan bog'liqdir. Fantastika to'g'risida gapirganda, biz ilmiy sarguzasht va noilmiy fantastikani tushunamiz. Zotan, badiiy asardagi fantastik elementlarning roli yozuvchi dunyoqarashi, janr, g'oyaviy estetik omillar, shuningdek, yozuvchi niyatining amalga oshirish usullari va xarakter orqali aniqlanadi. Albatta, fantastika qanday shaklda namoyon bo'lmasin va shakllanmasin, u birinchi navbatda real haqiqatni anglash, olamning, borliqning paydo bo'lish sirlarini tushuntirishga intilish shakli sifatida paydo bo'lgan. U o'zining butun tarixiy rivojlanish jarayonida hayotni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli sifatida shakllanadi va inson ongining o'sishi bilan bog'liq juda murakkab hamda davomiylikdagi rivojlanish yo'lini bosib o'tadi. Albatta, fantastik adabiyotining shakllanish bosqichlarida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, xususan, Jyul Vern asarlaring paydo bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Zero, Jyul Vern asarlarida hali hayotda, turmushda bo'lmagan keyinchalik amalga oshgan ko'pchilik kashfiyotlar, ixtirolar tasvirlab berilgan. Demak, badiiy fantastika hali inson qo'li, aqli yetmagan koinot deb atalish buyuk hamda cheksiz galaktikaning ehtimoldan uzoq yoki yaqin bo'lgan sir sinoatlarini, tasvirlash qudratiga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ilmiy fantastika adabiy janr sifatida ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ilmiy fantastika keng hajmdagi ichki turlarni va mavzularni qamrab oluvchi janr hisoblanadi. Hyugo Gernsbek birinchilardan bo'lib ilmiy fantastika atamasini o'zining asarlarida qo'llagan va shunday fikrni bildirib o'tgan. Jyul Vern, Gerbert Uells, Edgar Allan Po o'zlarining ilmiy fantastik hikoya va

romanlari orqali tugallanmas ilmiy asoslar va oldini ko'rsatuvchi hikoyalari bilan hammani jalb etdi. 1970-1971-yillarda Uilliam Atelning inglizcha atama "ilmiy fantastika" haqida yozadi. Ilmiy fantastik yozuvchilardan biri Robert A. Hinlen muhim bo'lgan qisqacha ta'rifni berib o'tdi: kelajak voqealar uchun haqiqiy taxminlar, o'tmish hamda hozirgi real hayot talablariga javob beradigan bilimlarga asoslanganligi, tabiatni to'la anglab yetish hamda ilmiy metodlarning muhimligini tushunish orqali Rod Serlin shunday fikrni bildiradi. Fantastika imkonsiz ehtimollik, ilmiy fantastika esa aqlga sig'dirish murakkab bo'lgan ehtimollikdir. XVIII asrda romanchilikni adabiy janr sifatida rivojlanishi natijasida, XIX asrda Mari Shelley Frankenshtynning "The Last Man" kitobi ilmiy fantastik romanlar ko'rinishlarini aniqlashga keng imkoniyat tug'dirdi va Brayn Aldis birinchi ilmiy fantastik asar sifatida Frankenshteynning asarlarini keyinchalik esa Edgard Allan Poning marsga hujum asarini ta'kidlab o'tadi. XIX asrda "ilmiy romanlar" atamasi fantastikani tasvirlashda ishlatilgan bo'lib misol tariqasida: 1884- yilda Edvin Abotning "Flatland" asarini keltirishimiz mumkin. Bu atama XIX asrning boshlariga Olaf Stapledan kabi yozuvchilar tomonidan qo'llanilib kelingan. Yangi texnika va texnologiyalarning taraqqiy etishi, misol tariqasida: elektr tarmog'ini, telegraf, transportatsiya kuchlarining yangi ko'rinishlari Gerbert Uells, Jyul Vern kabi yozuvchilarni o'z asarlarini yaratishga zamin hozirlagan. Ilmiy fantastika idrokli kelajakdagi ehtimoli mavjud bo'lgan narsa va xususiyatlarga asoslanadi va fantastikadan farqli holda hayoliy tasvirlovchi va fizik qonunlarda asoslanganligi hisoblanadi, ushbu elementlar ko'zga yaqqol tashlanadi.⁸ Ilmiy fantastika makon va zamondaga moslashishi bilan realikka yaqin turadi, lekin bunda ham taxminiylik, ishonchsizlik bor va o'quvchi ilmiy asosga ega bo'lgan, ilmiy qarashlar va to'qima obrazlarning hayotiy bo'lishini izlaydi. Ilmiy fantastika elementlari: kelajakda sodir bo'ladigan voqea yoki bo'lmasa tarixiy va arxeologik dalilarga asoslangan bo'ladi, makon va zamon jihatidan voqealar yerdan tashqari makonda bo'ladi, bosh qahramonlar sifatida robotlar, ajnabiylar, mutantlar,

⁸ Ибрагимова.Р.Г. Жанр научной фантастики в узбекской итсоветской литературе. Ташкент, 1987. – 12 с.

mexanik odamlar bo'lishi mumkin, telepartatsiya mashinalari yoki bo'lmasa nurli avtomatlar, kompyuterlar texnologiyasi; yangi yoki turli-tuman iqtisodiy va jamiyat sistemasi, masalan: xayoliy dunyo, baxtsiz insoniyatning dunyosi kabilar, shuningdek, paranormal qobiliyatlar, telepatiya va boshqa sayyoralar va ularga sayohat kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Inglizadabiyotidazamonaviy fantastik janr XIX asr davomida fantastik sayohatchilarning hikoyalaridan ildiz olgan holda yaratila boshlangan. Viktorian davrining boshlarida fantastik elementlarni o'zida mujassamlashtirgan hikoyalarni aytish davom etdi. Charlez Dikens roman xarakteridagi haqiqatga yaqin arvoq hikoyasi "The Christmas Carol"ni yaratadi. Bu asar yaratilgan song yozuvchining arvohlar haqidagi tasavvurlari, izohlari keskin tanqidga uchragan.

Ingliz adabiyotida fantastik ertaklar yozish an'anasini Uilliam Tekkerining "The Rose and the Ring" misol qilib keltirishimiz mumkin. Shuningdek, Jon Ruskinning "The King of Golden River" fantastik ertakning yangi uslublarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib hisoblanadi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida ingliz adabiyotida zamonaviy fantastik janrining eng yorqin namunalari yaratila boshlandi. Zamonaviy fantastik janrning tarixi Jorj Makdonaldning "The Princess and the Goblin" hamda "Phantaste" asarlarini yozilishi bilan boshlangan bo'lib, bu asarlar asosan yosh kitobxonlar orasida keng tarqaladi. Shuningdek, Makdonald fantastik janri haqida tanqidiy hikoyalar to'plamini ham yozadi hamda bu kitobning nomi "Fantastik tasavvur" deb nomlagan edi. Makdonald J.Tolkin hamda S.Lewisning ijodiy taraqqiyotida ulkan ta'sir ko'rsatgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu davrning yana bir yirik fantastik asarlar muallifi Uilliam Moris bo'lib, o'rta asrlardagi asarlarning ixlosmandi bo'lgan, Britaniya mehnatkashlarini tarafdori sifatida juda ko'p she'rlar ham yozgan, o'z davrida juda katta muvaffaqiyatga erishgan yirik fantastik asarlarning ham muallifi hisoblanadi. Uning eng mashhur fantastik asarlaridan biri "The Well at the World's end" bo'lib hisoblanadi. Uilliam o'rta asrlarda yaratilgan asarlar, dostonlar,

afsonalarga juda qiziqardi. Uning uslubi ham o'ziga xos arxaik uslublardan bo'lib, o'rta asrdagi durdona asarlardan oziqlangan edi. Moris ingliz fantastik janrining tamal toshini qo'yishda o'zining hissasini qo'shgan atoqli yozuvchilardan hisoblanadi.

Ingliz adabiyotida fantastik asarlari bilan mashhur bo'lgan atoqli namoyondalarga Edgar Alan Po hamda O.Uayld dahshatli hikoyalarni talqin qilish orqali ingliz fantastikasini rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shganlar. O.Uayldning, "Dorian Grey surati" ("The picture of Dorian Gray") asari diqqatga sazovordir. Bu yozuvchilarning fantastik janrga yaratgan noyob durdonalari H. P. Lovkraftning noyob fantastik asarlar yaratishiga zamin yaratdi. Shuningdek, O.Uayld bolalarga bag'ishlangan bir nechta fantastik asarlar yaratdi. Bunday asarlarga misol qilib "The happy prince and other stories" hamda "The house of pomegranates" kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

XX asrda Makdonaldning fantasika janrining rivojidadagi ta'siri juda muhim ahamiyatga ega edi. Bu davrda Makdonaldning namunalaridan foydalangan holda ingliz fantastik adabiyotida Lord Dunsey kirib keldi. U kichik fantastik asarlar bilan bir qatorda yirik fantastik romanlar yozdi. Dunsey o'zining yorqin hamda esda qoladigan uslubi bilan ko'pchilik fantastik asar muxlislarini e'tiboriga tushdi. Uning uslubi o'zidan keyingi fantastik asar namoyondalariga poydevor vazifasini o'tadi.

S.T.Joshi shuni alohida ta'kidlab o'tadiki, Dunsayning o'ziga xos bo'lgan fantastik janrda o'zining uslubining yarata olishi, ya'ni o'zining qirolik haqidagi tasavvurlari hamda tabiatning g'ayritabiiy mo'jizalarini o'zida mujassamlashtirgan fantastik asarlari E.R.Edison, Marveyn Pek hamda J.R.R Tolkinlar bu yo'nalishni davom ettirdilar⁹.

Tarixchi Maykl Salerning fikr-mulohazalariga asoslangan holda sekulyativ fantastik asar yaratish 1880-1890-yillar jamiyatning diniy hayotdan voz kechishi, ya'ni cherkov hayotidan xoli bo'lishning avj olishi natijasida yuzaga kela boshladi. Bu esa yozuvchilarga badiiy realizmda har xil usullardan

⁹Boynazarov F. Jahonadabiyoti. Toshkent, 2006. –55 b.

foydalangan holda fantastik janrning yangi namunalari hamda estetik adabiyotning namunalari bilan uyg'unlashtirgan holda fantastik janrning go'zal namunalari yaratishga imkoniyat yaratib berdi. Ayniqsa, bu davrda ingliz adabiyotida yaratilgan fantastik asarlardan biri bu H.Rider Haggardning "Lost world" diqqatga sazovordir. Shuningdek, Edgar Rike Brouts hamda Abraham Meritning yaratgan fantastik asarlari ham ingliz adabiyotidagi durdona asarlardan bo'lib hisoblanadi.

Bu davrda ingliz adabiyotida bir nechta bolalarga bag'ishlangan fantastik asarlar ommalashdi. Bunga misol qilib Lyuis Karolning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" ("Alice in wonderland"), J.M.Barrining "Piter Pen" ("Peter Pan"), L.Frank Bumning "Oz shahrining g'aroyib sehrigari" ("The wonderful wizard of Oz") hamda Frank Stokton va E.Nesbitning yaratgan asarlarini ham keltirishimiz mumkin. Karol Levis shuni alohida ta'kidlab o'tadi: "XX asrgacha barcha yozuvchilar hamda kitobxonlar fantastik asarlar ko'pincha bolalar uchun yaratilishi lozim deb hisoblardilar. Keyinchalik esa o'smirlar hamda katta yoshdagilar uchun ham fantastik asarlar yaratish an'anasi paydo bo'ldi".¹⁰

Ingliz adabiyotida fantastik janrning rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri badiiy fantastikaga oid bo'lgan jurnallarni yaratilganligi bo'ldi. Birinchi bo'lib shunday jurnal Germaniyada 1919-1921-yillar oralig'ida yaratildi hamda o'z faoliyatini olib bordi. 1923-yilda esa birinchi ingliz tilidagi fantastik adabiy jurnal "Weird tales" yaratildi. Shundan so'ng ketma-ket "Unknown" hamda "The magazine of fantasy" jurnallari yaratildi. Bunday fantastikaga oid bo'lgan jurnallar ham Amerikada, ham Britaniyada juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, bunday jurnallar ilmiy fantastikaning rivojlanishida ham juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ingliz adabiyotida juda ko'p fantastik janrning atoqli yozuvchilari Klark Ashton Smit, Fritz Leyber, Rey Bredbury hamda eng mashhuri H.P.Lovkraf o'zlarining dastlabki faoliyatlarini jurnallardan boshlaganlar. Shuningdek, Lovkraf hamda Lord Dunseyning ijodiy faoliyatidan ilhomlangan holda Edgar

¹⁰Boynazarov F. Jahonadabiyoti. Toshkent, 2006. -67 b.

Alan Po fantastik adabiyotda o'zining faoliyatini boshlagan. Uning yaratgan sirli, dahshatli hamda ta'sirli hikoyalari XX asrning fantastik janr ixlosmandlarini diqqat markazida bo'ldi. Dastlab fantastik janrda ijod qilgan barcha yovuchilarning asarida shamshir hamda afsungarlikni o'zlarining asarlaridagi asosiy unsur sifatida tanlar edilar. Bunday yozuvchilarga misol qilib Robert Hovardni keltirishimiz mumkin. Hovardning "Conan the Barbarian", Fritez Leyberning "Father and Gray Mouser" asarlari bunday yo'nalishda yozilgan eng muakammal asarlari hisoblanadi. Hovardning, ayniqsa "Conan the Barbarian" asari o'zining misli ko'rilmagan sarguzashtlari hamda voqealari bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Bu asar Tolkinning ijodiy faoliyatini yanada ravnaq topishida juda katta xizmat qilgan. Leyberning fantastik hikoyalari esa o'z davrining g'ayritabiiy realizmiga ta'sir qilgan. Uning "Unknown" asarida bu xususiyatlar aks etgan bo'lib, realizmning elementlari o'zida mujassamlashtirgan edi. Moris hamda Edisondan Leyber ham ingliz adabiyotida fantastik asarlarning beqiyos namunasini yaratgan. S.L.Mor Leyberning davomchisi hisoblanib, uning fantastik janrdagi eng mashhur asari "The Black God's Kiss" bo'lib, bu asarda yozuvchi ingliz fantastik adabiyotidagi eng mashhur qahramonlardan biri Jirel Joyirni kashf qiladi. Bu fantastik qahramon qiz Gery Lachman hamda Helena Blavatning ham fantastik qahramonlariga ham ilmiy fantastik asarlarining yaratilishiga poydevor vazifasini o'tadi.

Amerika adabiyotida ham fantastik janrning beqiyos namunalari yaratilgan bo'lib, Jeyms Branchning 1919-yilda yaratilgan fantastik romani "Jurgen" o'z davrida muvaffaqiyatsizlikka uchragan, lekin Torn Smit 1926-yili "Topper" va "Turnabout" fantastik romanlarini, Charles Finley 1935-yil "The Circus of Lao" fantastik romanlari ingliz adabiyoti tarixida ulkan muvaffaqiyatga erishdi.

Britaniyada birinchi jahon urushi oqibatida ko'pgina fantastik asarlar o'smirlar uchun nashr qilina boshladi. Bunday asarlarga Stella Bensonning "Living alone", Devid Lindseyning "A voyage to Arcturus", Devid Garnetning

“Lady into fox”, Hope Mirlesning “The home in the mist” hamda Silviya Tovinsennning “Lolly Willownes” asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu davrning atoqli yozuvchilaridan biri E.R.Edison bo’lib, u Morisning izdoshi edi. Edison o’zining fantastik asarlarida shimoliy rivoyatlar, Tyudor hamda Elizabet davridagi shuhratli hikoyalarni mujassamlashtirgan g’ayratli qahramonlar hamda shonli sarguzashtlarni tasvirlashga harakat qilgan. Edisonning eng mashhur asari bu “The worm Ouroboros” bo’lib, bu asarda Merkuriy sayyorasining xayoliy obrazlari hamda suratlari tasvirlashga harakat qilinadi. Uning bosh qahramoni zodagonlar oilasidan bo’lmada, o’zida ulug’vorlik hamda buyuk kuch-qudratni mujassamlashtirgan edi. Bu fantastik asarda ifodalangan salbiy bosh qahramonlar Tolkinning asarlaridagi qahramonlardan ko’ra mukammalroq gavdalanirilgan. Ko’pgina olimlar bu asarda dunyoning buyukligi, quyi sinf vakillari yuqori sinf vakillari tomonidan qiynalgani, manmanlik, takabburlik, qo’pollik kabi illatlarni fantastik qahramonlar hamda ularning xulq-atvorlari orqali yoritib berilgan deb hisoblaydi. Bu asarning oxirida barcha qahramonlar tinchlik eng oliy ne’mat ekanligini anglaydilar hamda bostirib kelgan dushmanga qarshi ayovsiz kurash olib boradilar. Edison, Lindsey hamda Mireles o’zlari yaratgan fantastik asarlarini 1960-1970-yillar oralig’ida qayta nashr qiladi.

1938-yil T.H.Vayt o’zining “Toshdagi shamshir” (“The Sword in The Stone”) komik fantastik asarini omma e’tiboriga havola qilganidan so’ng, misli ko’rilmagan darajada shuhratga erishadi.

Bu davrning adabiy tanqidchilari ushbu davrni ingliz adabiyotdagi eng qiziqarli adabiy janr, ya’ni “fantastik janr” deb ta’kidlab o’tadilar. Gerbert Red ham o’zining 1928-yilda yozgan “English Prose Style” kitobining birinchi bobini fantastikaga bag’ishlagan edi hamda ushbu fantastik janrni ingliz adabiyotidagi eng muhim janr ekanligini ta’kidlab o’tadi va shunday deydi: “G’arb dunyosi o’smirlarning tarbiyasi uchun fantastik ertaklarning naqadar

muhimligini anglay boshladi”¹¹. Shuningdek, Eduard Vagent ham o’zining 1946-yilda yozilgan “Kichkina shahzoda va oq bug’u” (The Little Prince and The White Deer) maqolasida shunday degan edi: “Fantastik janrning xususiyatlari nafaqat bolalarning, balki o’smirlarning ham tarbiyasida juda katta ahamiyatga egadir”¹².

XX asr Angliya bolalar adabiyotiga razm soladigan bo’lsak, unda fentezi janri boshqa janrlardan ko’ra sezilarli darajada ustunlik qilganini ko’rishimiz mumkin. Fentezi (inglizcha “fantasy” – fantaziya) – fantastik adabiyot janri bo’lib, janr talablariga ko’ra voqealar biz yashaydigan “real” dunyodan butunlay farq qiladigan sehrli dunyoda sodir bo’ladi. Bu “ikkilamchi” dunyoning o’z qonun-qoidalari mavjud bo’lib, ular oddiy mantiq va tabiat qonunlariga to’g’ri kelmaydi. Uning ilmiy fantastikadan farqi shundaki, fentezi janrida voqealar sodir bo’ladigan dunyoning qonun-qoidalarini ilmiy jihatdan tushuntirishga urinish mavjud emas. Vaqtlar almashinuvi hamda turli xayoliy qirolliklar fentezi dunyosida tez-tez uchrab turadigan hodisa. Bu xayoliy dunyoga qahramonlar turli yo’llar orqali o’tishlari mumkin: uxlab qolib yoki tush ko’rayotib, quyon uyasiga tushib ketib (“Alisa mo’jizalar mamlakatida”), shkaf orqali (“Narniya saltanati”-“The chronicles of Narnia”), loviya poyasiga tirmashib (“Jek va loviya poyasi”) yoki tornado quyuniga tushib qolib va hokazo. Shuningdek, bu g’ayrioddiy dunyo oddiy dunyoning ko’z ilg’amas, yashirin qismi bo’lib, unda sehrli va g’ayritabiiy kuchlar (kelajakni bashorat qilish, hayvonlar va o’liklar bilan suhbatlashish, inson qiyofasidan boshqa mavjudot qiyofasiga o’ta olish va hkz.) mavjudligi bilan ham ajralib turishi mumkin. Janrning xususiyatlaridan yana biri fantastik dunyoda g’alati jonzotlar ham hayot kechirishadi (so’zlovchi buyumlar va hayvonlar, afsonaviy jonzotlar, ritsarlar, sehrGAR-u afsungarlar, bo’ri-odamlar, elflar, arvoHlar, ajdarholar va shunga o’xshash boshqa mavjudotlar).

¹¹ Herbert Read. “English prose style”. London, 1928. –56 p.

¹² Edward Wagenknecht. “The little prince and the white deer”. London, 1946. –78p.

Taniqli rus yozuvchisi Aleksandr Kuprin ishlatgan. U “Rudyard Kipling” (1908) nomli maqolasida Gerbert Uells va boshqa mualliflarning asarlarini “Ilmiy fantastik sayohatlar” deb atagan. Ilmiy taxayulot yoki ilmiy fantastika ilg’or fan-texnika mavzusiga bag’ishlangan badiiy adabiyot janridir.¹³ Oddiy fantastik asar tasvirlayotgan olamidagi fenomenlarning ilmiy asoslanishi bilan farq qiladi. Ilmiy fantastik asalarda mavjud ilmiy qonunlar buzilmaydi, ya’ni sehr aralashmaydi, biroq ba’zi kelajakda aniqlanishi va amalga oshirilishi mumkin bo’lgan tezislariga ham ishora qilinadi. Masalan, yo’rug’lik tezligidan-da tezroq parvoz, vaqt sayohati, o’zga sayyoraliklar va hokazo. Ilmiy fantastika kelajak ilmiy texnologiyalari, koinotga sayohat, vaqt oralig’idagi sayohat, yorug’likdan-da tezroq va mukammalroq bo’lgan, parallel dunyolar va insoniyat dunyosidan tashqaridagi hayot kabi xayoliy tushunchalar bilan shug’ullanuvchi xayoliy to’qima janri hisoblanadi. Ilmiy fantastik janr odatda ilmiy va boshqa innovatsiyalarning ehtimoli yuzaga chiqishi mumkin bo’lgan oqibatlarini tadqiq etadi va bu “Fikrlar adabiyoti” deb aytiladi. Bu janr g’ayrioddiy voqealardan qochadi va fantastik janrga o’xshamagan holda tarixan yaratilgan fanda ilmiy-fantastik hikoyalar ilmiga, fakt va nazariyaga asoslangan. Ammo bu bog’lanish hozirda ancha cheklangan bo’lib, murakkab ilmiy fantastika deb aytilishini qayd qilib o’tish joizdir. Ilmiy fantastik janrning xususiyatlariga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, avvalo, bu janr xayolotga asoslanganligini eslatib o’tish joizdir. Birinchi navbatda ilmiy fantastik asar xususiyatiga asarda makon hamda zamonning g’ayrioddiy, boshqacha yoki yiroq ekanligining guvohi bo’lamiz. Ilmiy-fantastika janrida ijod qiluvchi yozuvchilarning asosiy vazifasi bu dunyo haqida biz o’quvchilarda tasavvur uyg’ota bilishdir. Bu dunyo kelajakda, tarixda yoki boshqa bir sayyorada bo’lishi mumkin. Fantastika janri haqida gapirmay turib, ilmiy-fantastika haqida tasavvurga ega bo’lish qiyin. Bu ilmiy fantastik asarni oddiy fantastikadan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlardan biridir. Ilmiy fantastik asarda o’zga sayyoraliklar yoki g’alati mavjudotlarning bo’lishi bizga yot bo’lib ketgan. O’zga sayyoraliklar inson bo’lmagan mavjudotlar orasida

¹³Ибрагимова.Р.Г.Жанрнаучнойфантастикивузбекскойсоветскойлитературе. Ташкент,1987.

uchraydigan obrazlardir. Ammo ilmiy fantastik asar faqatgina o'zga sayyoraliklar haqida degan xayoldan yiroq bo'lishimiz kerak. Asar robotlar yoki tashqi tomonidan odamzotga o'xshab ketadigan mavjudotlar (Frankenshteyn odamxo'r singari) haqida bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Ilmiy fantastika, boshqacha qilib aytganda, insoniylikning cheklovlarini ochib tashlash, fosh qilishga qaratilgan adabiy janr turi. Balki insoniyat dunyosidan tashqaridagi hayotda yashaydigan mavjudotlar bordir. Ularda ham insondagi kabi his-tuyg'u bor bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Faqatgina insonga emas, inson bo'lmagan mavjudotlarga ham o'z e'tiborini qaratib, ilmiy fantastika janrida ijod qiluvchilar muxlislarini asar voqealariga jalb qila oladilar.

20-yillarga kelib fantastik reallikni ko'rsatishda til vositalarining roli oshdi. Lingvist va qadimgi tillar o'qituvchisi Erik Edison o'zining "The Worm Ourborous" ("Uroboros chuvalchangi", 1922) asarida qadimgi ingliz tili uslubini qo'llaydi. Keyinroq Jon Ronald Tolkin ham uning usulini qo'llab, asarida o'zi yaratgan "o'rtayer" dunyosining "ishonarliligini" isbotlash uchun o'rta asr ingliz tilidan foydalanadi.¹⁴

Adabiyotning bu janri boshqa janrlarga o'xshab, kundalik hayotning tashvishlaridan qutulish va hayotning turli talqinlarini qidirishda yaxshi vosita sanaladi. Ba'zi fentezi asarlari aql bovar qilmas sarguzashtlarning shunchaki ketma-ketligidan iborat bo'lsa, ba'zilari hayotning eng chuqur falsafiy tomonlarini ham ko'rsatib beradi. Birgina hayvonlar va o'yinchoqlar fentezini oladigan bo'lsak, A.A.Milnening "Winnie the Pooh" (Vinni Puh) asari yoki Karlo Kollodining "The Adventures of Pinocchio" (Pinokiyoning sarguzashtlari) asarlari orqali kitobxonning sevimli o'yinchoqlari real hayotda odam kabi yashashi, fikrlashi, nafas olishi, sevishi va o'zini tutishi mumkin bo'lgan jonli mavjudotlarga aylantiriladi. Bu esa muallif tomonidan kutibxonga zamonaviy o'yinchoq xayolotlarini rasm kitobi formatida xayolan his qilishiga imkon yaratadi. Ushbu xayolotlar ortida, sarguzashtlarni qidirish, izlash, sehrli voqealar

¹⁴ Boynazarov F. Jahon adabiyoti. Toshkent, 2006. – 43 b.

xayolotda yuz berishi, yovuzlik va yaxshilik o'rtasidagi kurashlarda o'z aksini topgan. Piers aytganidek: "Fentezi - uni yozadigan va o'qiydiganlarga tarixdan olingan ba'zi eng kuchli g'oyalar, qahramonlar va voqealarni boshqa kontekstga qo'yib, alohida elementlari o'zgartirilganda uni qanday fosh qilishlarini ko'rish imkonini beradi".¹⁵ Fentezi janrining sifatli namunalar bolalarning tasavvuri va ijodkorligini oshirishda eng yaxshi mashg'ulotlardan biri sanaladi. Shuningdek, ular jiddiy axloqiy fazilatlarini ham o'zida mujassam etadi: ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, do'stlarga sadoqat, qaror qabul qilish mas'uliyati, shaxsiy burch va vazifalar fentezi asarlarida eng ko'p uchraydigan mavzular bo'lib kelgan.

Fentezi janri uzoq tarixga ega bo'lib, uning ildizlari grek-rim mifologiyasiga borib taqaladi. Xususan, Homerning "Odyssey" epopeyasida ham ushbu janrning ilk xususiyatlari namoyon bo'ladi. Qadimgi ingliz epik poemasi "Beovulf", o'rta asr ritsarlik afsonalaridan biri bo'lgan "Qirol Artur haqidagi afsona", Shekspirning "Bo'ron" tragikomediyasi, Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari", Lyuis Kerrolning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" asarlari fentezi janri xususiyatlari Britaniya adabiyotida ham asrlar davomida shakllanib kelganidan dalolat beradi. Fantastik adabiyotning mustaqil janri sifatida fentezi XIX asrda shotlandiyalik yozuvchi Jorj Makdonald ijodi bilan ajralib chiqq boshladi. Uning kelt motivlari asosida yozgan "Phantastes: Faery Romances" asarida yosh yigitning ertak mamlakatga borib, u yerda turli sarguzashtlarni boshidan kechirib, uyga qaytishi haqida hikoya qilinadi. Janrning keyingi rivojiga Uilyam Morris o'zining antik va o'rta asr mavzulari yoritilgan epik poema va romanlari bilan o'z hissasini qo'shdi. Morris tomonidan yaratilgan shriftlar to'plami va sahifalarni bezash usuli fentezi asarlar nashriyotida o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirdi. XX asrda Jorj Makdonald va Morris boshlab bergan an'anani Edvard Danseni davom ettirdi. Uning "The king of Elfland's daughter" romani qadimgi kelt afsonasi asosida yaratilgan

¹⁵ Piers.A. Encyclopedia. New York. 1934. -12 p.

bo'lib unda yerda yashovchi qirol va qorong'u elflar mamlakati malikasining muhabbati haqida hikoya qilinadi.

Badiiy adabiyotning tur va janrlari xilma-xil va rang-barang bo'lganidek, ular da ko'tarilgan hayotiy muammolar ham serjilodir. Bu esa har bir adabiy tur va janrlarning o'ziga xosligi, tasvir ko'lami hamda mazmuni, syujeti va kompozitsiyadan kelib chiqadi. Fentezi janrida simbolizm muhim rol o'ynaydi. Fentazini realism bilan uyg'unlashtirishda, undagi rang-baranglikni taqdim etishda yozuvchi undan foydalanadi. Ko'pincha miflardan yoki falklardan ilhomlangan holda arxaik figuralardan foydalanish orqali yuzaga keladi. Maykl Morkokning ta'kidlashicha, ko'plab yozuvchilar arxaik tilni jonsiz hikoyalarni boyitishda bo'yoqdorlikni oshirish uchun ishlatishadi. Ko'rinib turibdiki, fantastik asarlarni yozishda muallif real hayotda mavjud bo'lmagan belgilar, vaziyatlar va qahramonlarni foydalanadi. Fentezijanridagi asarlarda muallif xayolot dunyosini yoritishda o'quvchilarga aqlga sig'maydigan yoki imkonsiz narsalarni qabul qilishga ishontira olsagina asari mukammal darajasiga yetadi. Bu olamda hech qanday qolip yoki qoidalarga asoslanmagan holda yozuvchi barcha xayolot dunyosi his-tuyg'usi, kechirmalari bilan band bo'ladi. Maqsad, auditoriyani shakllantirish va o'quvchiga imkonsiz bo'lgan voqea-hodisalarni ta'savvurda ko'rsatish va estetik zavq bag'ishlash.

Ilmiy fantastika va fentezi tashqi tomondan adabiyotning ikki xil shakli bo'lib ko'rinadi va shu bilan birga bu ikki janr bir-biriga o'xshash xususiyatlari ham mavjud. Ushbu paradoks XX asr davomida ko'plab munozaralarga olib keldi desak adashmagan bo'lamiz. Ilmiy fantastika va fentezi mavjud bo'lmagan narsalarni, xayoliy to'qimalarni ikkalasi ham taqdim etadi. Lekin ilmiy fantastika va fentezi nafaqat xayoliy belgilar va voqealarni, balki sifat jihatdan odatiy, kundalik tajribamizdan tashqarida bo'lgan sozlamalarni, mavjudotlarni, tushunchalarni yoki asboblarni o'z ichiga oladi. Garchi ular bir qancha xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ular orasida aniq farq bordir.

Fentezi- nutq kabi eski bo'lishi mumkin. Aytish joizki, qadimda otabobolarimiz oddiy tabiat hodisalari ya'ni yomg'ir, momaqaldiroq va

chaqmoqlarni qayerdan kelgani kabi tushunarsiz narsalarni tushunish uchun hikoyalar tuzishgan. Yoki o'sha davrda o'zlarining yeriga egalik qilish maqsadida qilgan- g'orda maxsus ma'rosimlar aks etgan rasmlar chizishganligi, olov atrofida sig'inishlar bular barchasi onglariga sig'maydigan narsalarni hikoyalar orqali ular xayolotining o'ziga xos belgisi bo'lib kelgan, xayoliy mavjudotlar va mistik kuchlar bilan to'lgan ertaklarni to'qishgan. Shunday ekan fentezi insoniyat kabi qadimiydir.

O'z navbatida, ilmiy fantastikaham fentezi kabi uzoq tarixga ega badiiy adabiyotning bir turidir. Fanda ilmiy fantastika atamasi XVII asrning boshlarida Frensis Bekonning "New Atlantis", Yoxannes Keplerning "Somnium" va Frensis Godvinning "The Man in the Moone" asarlarida uchratish mumkin. "Ilmiy-fantastika" atamasi ingliz muallifi Uilyam Uilson tomonidan 1851-yilgacha aniqlanmagan. "Ilmiy-fantastika" haqida birinchi ma'lumot uning "A Little Earnest Book on a Great Old Subject" deb nomlangan kitobining o'ninchi bobida uchraydi, ammo u 1930-yillargacha keng qo'llanilmadi.¹⁶

XXI asrda yashayotgan biz uchun bu holatni tasavvur qilish qiyin bo'lmasa-da, ammo odamlar har doim ham ilmiy usulni, ya'ni kuzatuv va tajriba natijasida olingan empirik dalillarni dunyo haqida tushunishning eng yaxshi usuli deb bilishmagan.

"Webster's Ninth New Collegiate Dictionary" lug'atiga ko'ra, ilmiy fantastika – "aslida yoki xayoliy ilm-fanning jamiyat yoki shaxslarga ta'siri bilan shug'ullanadigan yoki ilmiy yo'naltirilgan tarkibiy qism sifatida ilmiy omilga ega bo'lgan fantastika".¹⁷ "Boshqacha aytganda, ilmiy fantastika hikoyaning spekulativ elementlari uchun ilmiy asosga tayanadi. Bunday hikoyalarning ohangi dastlab ijobiy, ilmiy qarashlarni qo'llab-quvvatlovchi va ilm-fan yaratadigan imkoniyatlarga nisbatan optimistik edi".¹⁸ 1851- yilda Uilsonning

¹⁶Senior, W.A. Variations on the Fantasy Tradition: Stephen R. Donaldson's Chronicles of Thomas Covenant. Kent, OH: Kent State University Press. 1995. – 37p.

¹⁷ Webster's Ninth New Collegiate Dictionary. Merriam-Webster Incorporation. 1983. – 980 p.

¹⁸ Wilson William. A Little Earnest Book on a Great Old Subject. Kessinger Publishing, LLC, 2007. –146p.

ushbu iborani ishlatishi ilmiy fantastika yordamida haqiqiy ilmiy ommalashtirish uchun ishlatiladigan maqsadga ishora qiladi.

Zamonaviy ilmiy fantastika yozuvchilaridan Jyul Verne va H.G. Uells o'sha paytda mavjud bo'lmagan narsalarni ma'lum bo'lgan narsalarning chegaralari orqali cho'zishni taklif qilishadi. Ilgari va hattoki o'sha davrning boshqa spekulativ uydirmalaridan farqli o'laroq, ularo'zlarining fantastik qurilmalarini hozirgi fan va texnologiya ekstrapolyatsiyasiga asoslashgan. Mumkin bo'lmagan yerlarga tashriflar, g'alati mavjudotlar bilan uchrashuv va hatto vaqt o'tishi bilan xayoliy sayohatlar ko'pincha orzu yoki mistik tushunchaning natijasi edi. Uells va Verne o'z o'quvchilariga ajoyib fantastik qurilmalarini taqdim etishdi, ammo bular ilmiy tushuntirilgan prinsiplarga asoslandi. Ular g'alati mavjudotlarni o'z ichiga oladi, ammo ular g'ayritabiiy emas, tabiiy edi, hech bo'lmaganda nazariy, biologiya va evolyutsiya nuqtai nazaridan tushunarli qobiliyatlarga ega edi.

Fentezida bu ozroq cheklangan. Bu deyarli har qanday narsani o'z ichiga olishi mumkin - sehrli tayoqchalar, vampirlar, ajdarlar, jinlar, bo'rilar, jinlar va hatto cho'ntak soatlari bilan belbog'dagi quyonlar. Bu narsalar shunchaki ilmiy, naturalistik, post-ma'rifiy nuqtai nazardan tushuntirishga hojat yo'q. Sehrli elementlar ichki ziddiyatli bo'lishi kerak, ammo ular ma'lum fanga asoslanishi shart emas. Agar hikoyada g'ayritabiiy yoki mifologik belgilar yoki kuchlar ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmasa, unda bu xayoldir. Taniqli misollar qatoriga "Garri Potter", "Uzuklar hukmdori" va Terri Pretchetning "Discworld" kitoblari shu jumladandir.¹⁹

Albatta, bu ikki janrni o'z ichiga birlashtirgan kitoblar mavjud. Bunga nisbatan qo'llanilgan atama "ilmiy fentezi" dir. "Yulduzli urushlar" bunga misol qilib oladigan bo'lsak, bunda asosan fentezining elementlaribiroz fantastik sarguzashga aks etgan. Fentezi elementi - bu mistik "energiya" maydoni sifatida tavsiflangan kuch. Ilmiy fantastika elementlari, shubhasiz, yerdan tashqaridagi

¹⁹Saricks, Joyce G. The Readers' Advisory Guide to Genre Fiction. ALA Readers' Advisory Guide Series. American Library Association, Chicago. 2009. – 289 p.

musofirlar va kosmik kemalardir. Boshqa bir misol, “ Yulduzlar yo’li”ni oladigan bo’lsak , bunda asosan ilmiy fantastika qo’llanilgan, ammo ba’zi bir jihatlarida fentezini ko’rishimiz mumkin. Ilmiy fantastika elementlaridan biri sifatida- kosmosda buzilishlarni keltirib chiqaradigan materiya antimater reaksiyasi orqali erishiladigan super luminal kosmik sayohatlarning fazoviy vaqti talqin qilingan bo’lsa, “Yulduzlar yo’li”ning fantaziya-xayoliy jihatlarini Vulqonlar va Astroidlar tomonidan namoyish etilgan ilmiy izohlanmagan ruhiy qobiliyatlar kabi narsalarni o’z ichiga oladi.

Garchi ko’plab istisnalar mavjud bo’lsa-da, ilmiy fantastika haqidagi hikoyalar kelajakda ro’y beradi, fantaziya esa xayoliy o’tmishga, ko’pincha o’rta asrlarga xosdir. Albatta, bu har doim ham shunday bo’lavermaydi. Hozirgi kunda "Garri Potter" hikoyalari va ko’plab vampir va zombi romanlari bilan yaratilgan fantaziya janridagi kitoblarning tobora ommalashib bormoqda. Bugungi kunda fantaziya va ilmiy fantastika elementlarining aralashmasi juda keng yoritilib, ikkala janrning ko’plab pastki kategoriyalari shakllanib bormoqda.

Mashhur yozuvchilardan biri Isak Asimovdan ilmiy fantastika va fentezi o’rtasidagi farqni tushuntirishni so’rashganda, u shunday javob berdi: "Ilmiy fantastika, ilm-fanga asoslangan holda bo’lishi mumkin; fentezi esa hech qanday reallikni kasb etmaydi".²⁰

Kanadalik ilmiy fantastik yozuvchilaridan biri Robert J. Soyer yana bir farqni keltirdi: “Tushunarli qilib aytganda: bizning o’z haqiqatimiz va xayolimiz o’rtasida nomutanosiblik mavjud bo’lsa; bizning real hayotimiz esa ilmiy fantastikaga uzviy bog’liqdir”.²¹ Uning so’zlariga ko’ra, fentezi biz tushuntirib bilmagan narsalarni borligini anglatadi. O’z navbatida, ilmiy fantastika hech bo’lmaganda bunday narsalar qanday paydo bo’lishi haqida tarixiy ma’lumotlarni taqdim etishi va hech bo’lmaganda biz hozir bilgan narsaga asoslangan nazariy izohni anglatishi kerakligini ko’rsatadi. Ular qayerdan paydo bo’lgan? Qanday qilib ular ishlashi mumkin? Xo’sh, ularga o’zlarining rivojlanish yo’llarini

²⁰ Milne, Ira Mark. Literary Movements for students. Gale, Cengage Learning. 2009. –144 p.

²¹ Sawyer, Robert J. Triggers. Ace Hardcover. 2009. –162 p.

o'zgartirishlariga nima turtki bo'ldi? Ilmiy fantastik asarlari bunday savollarga batafsil javob berishga hojat yo'q. Ular hikoyalarda batafsil tushuntirishni talab qilmaydi, ammo o'quvchi ular uchun ilmiy tushuntirishlar borligini his qilishi kerak.

Fentezi bunday narsalarning ma'lum fanlarda asos bo'lishini talab qilmaydi. Ilmiy fantastikada esa buni talab qiladi. Ilmiy fantastika - atamaning asl ma'nosida ilmiy dunyoqarashni qo'llab-quvvatlaydi va insoniyatga koinotni tushuntirish va porloq kelajakni yaratish uchun foydalanishi qobiliyatiga ishonitiradi.

Bu ikki janrning bog'liqligi –ilmiy fantastik asosiga ega bo'lgan fantaziya antitesi bo'lib, ilm-fan tushuntirib berolmaydigan yoki, u bilan bog'liq bo'lgan narsalarning mavjudligini tushuntirib berishligini anglatadi.

Albatta, bu ikki janr o'rtasidagi farqni tushunish uchun ma'lum bilim talab etiladi. Bu siz o'quvchida ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri, mumkin bo'lmagan yoki deyarli imkonsiz bo'lgan g'oyalarni farqlash uchun asos yo'q. Karl Sagan bir paytlar aytganidek: "Ilm – bu bilimlardan ko'ra ko'proq fikrlash usuli".²²

Xulosa shuki, ikkala janrdagi hikoyalar zukko, o'ychan, aqlni uyg'otuvchi va ajabtovur tuyg'ularni uyg'otishi mumkin. Ikkalasi ham bizni g'alati va qiziqarli dunyolarga olib borishi mumkin. Ikkalasi o'rtasida farq bor, ammo ertaklardan zavqlanish uchun buni tan olish kerak emas.

Birinchi bob yuzasidan xulosa

Simvolizm(ramziylik) badiiy adabiyotda keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Simvolika orqali har bir asar yanada go'zallashadi va o'quvchiga estetik zavq hadya etadi.Simvolizmni adiblar barcha narsalar,buyumlar hattoki, belgilar orqali gavdalanitirishadi.

Avvalo, miflarning tili ramz tili ekanligini, ibtidoiy odam tasavvurida dunyo ramzlar orqali qabul qilinib, baholanib, munosabat bildirilganligini asotir va ertak materiallariga tayanib qayd etganligini yuqoridagi ma'lumotlardan bilib

²²Sagan,Carl. Broca's brain: Reflections on the Romance of Science. Ballantine Books. 1986. –349 p.

olishimiz mumkin. Ijodkorning boy fantaziyasi va afsonalarga tayanishi orqaligina faqatgina kerakli natijaga erishish mumkindir.

Har bir mashhur yozuvchi fentezi janriga oid asrlar yozishga intilishi bu uning karyerasida har xillikka intilishi, ijodiy faoliyatini rang-baranglik, bo'yoqdorlik tomon eltishiga olib keladi.

Folklorda ham ramzlar xususiyati olimlar tomonidan o'rganilib borilmoqda. Folklorda ramzlarning xususiyatlarini yuqoridagi misollar orqali yoritib berdik. Ulardagi ma'no- mohiyat, qiyosiy tahlillar bilan ochib berdik.

Adabiyotning durdona asarlarining mazmun-mohiyati, saviyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Oddiy ko'ringan narsa-buyum yo bo'lmasa ranglarning ramzlar xususiyatiga alohida e'tibor qaratish orqali ham ijodkor o'z asarini mukammallik tomon boshlaydi.

Demak, o'quvchi ongida badiiy estetik ta'sir, mukammal ma'no-mazmun, g'oyaviy va mantiqiy asoslash, fantaziyaning chuqur yoritilganligi va ramziylik aks etirib badiiy xilma-xillikka erishilganligi asarning yutuqlari hisoblanadi.

II Bob. John Ronald Tolkinning XX asr adabiyotidagi o'rne

2.1. John Ronald Tolkin asarlari va fentezi janriga qo'shgan hissasi

Bugungi kunimizning eng yorqin yozuvchilardan biri, butun hayotini ishga bag'ishlangan shaxs. Bolalar uchun butun dunyo yaratgan inson—Jon Ronald Ruel Tolkin zamonaviy fentezi janrining asoschisi, Oksford universitetida yozuvchi, shoir, filolog, professor. Jon Tolkin — jahon klassikasining bir qismi bo'lgan inson sifatida e'tirof etiladi. U hayoti davomida bir nechta mashhur adabiy asarlarni yozgan, ularning barchasi fentezi janri dunyosida afsonaga aylangan. Tolkin ko'pincha fentezi janrning otasi, yaratuvchisi deb e'tirof etiladi. 1892-yil 3-yanvar oyida Bloemfontein shahrida tug'ilgan bo'lib, u bugungi kunda Janubiy Afrika Respublikasi tarkibiga kiradi. Uning otasi Artur Ruel Tolkin ingliz bankining menejeri, onasi Meybel Tolkin uy bekasidir. Ular oldin Janubiy Afrikada yashashgan. Uning otasi 1986-yilda uzoq davom etgan isitmadan vafot etgandan so'ng, bugungi qahramonimizning butun oilasi Angliyaga qaytib keldi. Birminghamning chekkasidagi uyda Tolkinning onasi bolalari bilan yashashdi. Bolalikda Jon oddiy bola edi. Ko'pincha tengdoshlari bilan o'ynar va tashqarida ko'p vaqt o'tqazardi.

Meybel Tolkin ikki bolasini ziyoli bo'lishini juda xohlardi. Shu tufayli ham ikki bolasiga yoshligidan uyda ta'lim bera boshladi. Meybel Tolkin botanikani juda yaxshi ko'rardi va bu sohadan juda ko'p ma'lumotlarga hamda bilimga ega edi. Ushbu bilimlarini bolalariga ham o'rgatdi, natijada bolalari botanikaga juda kata mehr qo'ydi, o'simliklar va hayvonlar dunyosini juda ulkan qiziqish bilan kuzatdi. Yosh Tolkin har xil tabiat manzaralari, daraxtlar hamda hayvonlarni sur'atini tasvirlay boshladi. Shuningdek, Meybel juda ko'p tillarni bilardi. Eng mukammal biladigan tili bu lotin tili bo'lib, bu tilni bevosita bolalariga ham o'rgatdi. Tolkin ham ulkan qiziqish bilan o'rgandi.²³

Tolkin to'rt yoshga to'lganida ravon o'qiy oladigan, gaplarni juda yaxshi talaffuz qiladigan bo'ldi. Natijada adabiyotning mashhur namoyondalarining

²³ Anderson Douglas. Descriptive bibliography. New York, 2003. —30 p.

mashur asarlari bilan tanishdi va bu asarlardagi go'zal g'oyalardan bahramand bo'la boshladi. Aynan shu paytda u "Treasure island" ("Xazina oroli"), "The Pied Piper" ("Rang-barang naychi") va Levis Karlning "Alice's adventures in wonderland" ("Alisa mo'jizalar mamlakatida") asarlari bilan tanishdi va bu asarlarni juda sevib qoldi. Tolkinning eng sevimli asarlaridan biri "Red Indians" ("Qizil hindular") bo'lib, bu asar mahalliy Amerikaliklar haqida bo'lib, juda ajoyib va qiziqarli hikoyalardan tashkil topgan. Bu hikoyalar Tolkinni o'ziga mahliyo qilib qo'yadi. Shuningdek, Jorj Makdonaldning fantastik asarlarini ham sevib o'qiydi. Keyinroq Andra Langning "Fairy books" ("Ertak kitoblari") dan ham bahramad bo'ldi va kitoblar olami uni tamomila mahliyo qilib qo'ydi.²⁴

Bu davrning kelajak yozuvchisi bo'lgan Tolkin oilasida juda og'ir kechdi. Moliyaviy tomondan qiynalishar edi, faqat adabiyot va din Meybel Tolkin va uning bolalari uchun yagona taskin bo'ldi. Tolkinning onasi 1904-yilda 34 yoshida diabetdan vafot etgan. O'limidan oldin bolalarini tarbiyalashni otasi Frensis Morganga, Birmingem cherkovining ruhoniysi, kuchli va g'ayrioddiy shaxsga ishonib topshirdi. 1911-yilda Tolkin Qirol Edvard maktabida ta'lim olishni boshladi. Maktab davri Tolkinning hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ijodiy faoliyati uchun muhim poydevor bo'ldi. Maktabdagi bir umrlik do'stlari: Rob Gilson, Jofrey Smit, Xristofor Vismenlar bilan tanishdi. 1914-yilda maktabdan ketishga majbur bo'lgan bo'lsa ham, do'stlari bilan uzoqlashmadi, doimiy aloqada bo'ldi.

1911-yilning yozida Tolkin oilasi bilan Shvetsariyaga sayohatga boradi. Tog'yonbag'irlarida qilgan sayohati Tolkinning kayfiyatiga juda katta ta'sir qiladi. Natijada juda ko'p fantastik asarlar bilan oshno tutinadi.

Shu yilning oktyabr oyida Tolkin Oksfordda joylashgan Ekster kollejida o'qishni boshladi. Tolkin 1913-yilda o'zining o'qish faoliyatini kollejning ingliz tili va adabiyoti yo'nalishiga ko'chiradi. 1915-yilda Tolkin universitetni imtiyozli diplom bilan tugatdi va xizmatga jo'nadi, ko'p o'tmay Jon frontga

²⁴Anderson Douglas. Descriptive bibliography. New York, 2003. –37 p.

chaqirildi va Birinchi Jahon urushida qatnashdi. U Sommidadagi bo'lgan qonli jangdan omon qoldi, u yerda uning eng yaxshi do'stlari vafot etdi, shundan keyin urushdan nafratlandi. Keyin u tif bilan kasallandi va uzoq davom etgan davolanishdan so'ng nogironligi tufayli uyiga yuborildi. Keyingi yillarni o'zining ilmiy karyerasiga bag'ishladi: dastlab u Lids universitetida dars bergan, 1922-yilda Oksford universitetida Anglo-Sakson tili va adabiyoti professori bo'lib, u yerda eng yosh professorlardan biri bo'lgan (30 yoshda) va tez orada eng yaxshi filologlardan biri sifatida shuhrat qozongan. U dunyoning eng yaxshi filologlaridan biri, keyinchalik esa yozuvchilarning shon-sharafiga sazovor bo'lgan shaxsdir.

Tolkin Edit Mery ismli qiz bilan tanishib qoladi va unga uylanadi. Tolkin hamda Meryning to'tta farzandlari bor: Frans Ruel Tolkin, Maykl Ruel Tolkin, Xristofor Ruel Tolkin, Mariya Ruel Tolkin.²⁵

Yigirmanchi yillarda Tolkin o'zining birinchi adabiy asarini – “Silmarillion”ni yozishni boshladi, u qisqa hikoyalardan tashkil topgan va O'rta asrning g'aroyib dunyosining ta'rifini o'z ichiga olgan asar. Biroq, bu ish bo'yicha ishlar birozdan keyin tugallandi. Oldin u ishni - ukasining bolalariga ma'qul keladigan kichik ertaklar yozishdan boshladi, uning "Hobbit" yoki "Borish qaytish" deb nomlanadigan yengil va ko'proq "xayoliy" voqealar bilan boyitilgan asarni yozdi. Bu kitobda u O'rta asr dunyosini- xayoliy fantaziya bilan boyitilgan mukammal asar yaratishga va kitobxonlar oldida to'liq tasvir ko'rinishida paydo bo'lishi uchun mehnat qilgan. Jon Tolkinning birinchi asari "Hobbit" 1937-yilda chop etilgan va o'sha davr adabiyotida juda muvaffaqiyat qozongan.

Tolkin uzoq vaqt davomida o'zining professional kasbi haqida jiddiy o'yladi. U o'qishni davom ettirdi va shu bilan birga, “Silmarillion” kitobiga afsonalar yaratish ustida ishladi. 1945-1954-yillar oralig'ida u juda ko'p asarlar yozgan - asosan hikoya va ertaklardir. Kitoblari Buyuk Britaniya va undan

²⁵ Bode C. Highlights of American Literature. United States information Agency. Washington.DC. 1998. – 32 p.

keyin AQShda chop etilgan. O'sha paytdan boshlab butun dunyoda haqiqiy "Tolkin bum" boshlandi. Oltmishinchi yillarda, "The Lord of the Rings" eposi o'sha vaqtning mashhur asariga aylandi. "The Lord of the Rings" trilogiyasining birinchi qismi 1954-yilda nashr etilgan. "Uzuklar hukumdori" ning uchta kitobi nashr etilgan, unda O'rta Yerning murakkab madaniyati, tarixiva mifologiyasiga ega sehrli irq vakillari yashaydigan dunyo haqida hikoya qilinadi. Keyingi yillarda ushbu romanlar dunyoning barcha tillariga tarjima qilindi. Kino, animatsiya, audio pyesalar, teatr, kompyuter o'yinlari, komikslar uchun moslashtirildi va ko'plab taqlid va parodiyalarni keltirib chiqardi. Bukitob muxlislar uchun haqiqiy nishon bo'ldi. Dastlab, trilogiya tanqidchilarning bir necha salbiy sharhlarini oldi, ammo tomoshabin Tolkinning dunyosini qabul qildi. Choyxona, restoran, davlat muassasalari va hatto botanika bog'lari ham Tolkin qahramonlari sharafiga nomlangan. Biroz vaqt o'tgach, ko'plab taniqli shaxslar Tolkinning asarlari Nobel mukofotiga loyiq deb topishdive taqdimotiga ham chaqirishdi. Biroq, u sovrinni rad etdi. Garchi yozuvchining shaxsiy kollektsiyasidagi mukofot va turli adabiy mukofotlar haligacham ko'p to'plangan. Keyinchalik, Tolkinning kitoblariga asoslangan ko'p sonli ovozi ko'rsatuvlar, o'yinlar va multfilmlar Angliya va Qo'shma Shtatlardagi mashhur shaxslar tomonidan yaratilgan.

Tolkinning doimiy ravishda mukammallikka intilishi, uni ko'p marotaba o'zining badiiy asarlarini qayta yana bir bor ko'rib chiqishiga, taxlil qilishga majbur qilgani unga bir nechta bolalarning ertaklaridan boshqa biron bir narsani nashr etishga imkon bermadi. Yozuvchining "Silmarillion" epik hikoyasi uch marta boshlangan, ammo hech qachon nashr etilmagan. Unda Beren, Lyuten va Turinning ertaklari yozilgan va u "Silmarillion"ga aylantirilgan. Tolkinning o'g'li Kristofer tomonidan tahrir qilingan. Tahrir 1936-yildan boshlanib, Tolkin Atlantis afsonasidan ilhomlangan Numenor qulashi haqida ertakni o'z ichiga olgan holda ushbu doirani kengaytira boshlaydi. Tolkinning o'g'li Kristoferni adabiy ijrochi qilib tayinlagan va u taniqli fentezi janri asoschilaridan biri Gay Gavriel Kay yordami bilan ushbu materiallarning bir qismini "Silmarillion" deb

nomlangan yagona izohli jildga to'playdi. 1978-yilda "Eng yaxshi fantastik" romani uchun Lokus mukofotiga sazovor bo'ladi.

1971-yilda xotini Edis Meri o'limidan so'ng, yozuvchi uzoq vaqt davomida depressiyaga tushib qolgan. Bir yil o'tar-o'tmas, u oshqozon yarasi kasalligidan 1973-yil 2-sentyabrda 82 yoshida vafot etdi. Jahon adabiyoti shunday buyuk insondan ayrilgan bo'lsada, durdona fantastik asarlari va kitoblari bilan kitobxonlarning qalbida mangu va abadiy yashaydi.

Ko'p asarlari (ko'pincha qisqa hikoyalar) o'limidan so'ng nashr etilgan. Tolkin vafotidan keyin uning o'g'li qoralamalari asosida otasining ko'plab asarlarini nashr etdi, shular qatorida "Santa Klausning xatlari", "Janob Bliss" va boshqalar. Tolkinning o'g'li Kristofer otasi o'limidan oldin tugallanmagan bir qancha asarlarni, shu jumladan o'limdan keyin nashr etilgan "Silmarillion" va "Khurin bolalari" asarlarini tahrir qildi. "Hobbit" ning rasmlari 2012-yilda romanning 75-yilligi tantanasida, Tolkinning asarlari uchun o'ziga xos rasmlarini taqdim etgan holda chop etilgan.

Tolkinning 1937-yilda yaratilgan "Hobbit" hamda 1954-yilda yaratilgan "Uzuklar hukmdori" ("The Lord of The Rings") asarlari fantastik janrning hukmron tendensiyasida oliy o'rinni egallaydi desak yanglishmagan bo'lamiz. Uning "The Hobbit" asari o'spirinlarga bag'ishlangan bo'lsa, "Uzuklar hukmdori" asari epik fantastikaning ajoyib namunasi hisoblanadi. Tolkinning asarlari 1960-yillargacha faqatgina Britaniyada mashhur bo'lgan bo'lsa, bundan so'ng Amerikada ham misli ko'rilmagan darajada shuhrat qozonadi va eng ko'p sotiladigan bestseller kitoblar qatoridan joy oladi. 1968-yilning o'zida Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asari Amerikada uch million nusxadan ko'proq sotildi. Amerikaliklar bu asarni tez sur'atlarda qayta nashr qilishga kirishadilar va ulkan muvaffaqiyatga erishadilar. "Uzuklar hukmdori" asarini fantastik janrdagi ahamiyatini anglash juda katta ahamiyatga egadir.

Tolkinning asarlari ingliz fantastik adabiyotida tanqidiy yuksalishda yangi bir bosqichni yuksaltirishda yordam berdi. Uning "Uzuklar hukmdori" asari o'z asrining misli ko'rilmagan darajadagi yutuqlarga sazovor bo'lganligi hamda

kitobxonlar orasida eng ko'p tarqalgan fantastik janrning durdona asarlaridan biri bo'lib hisoblanadi. L.Frank Baumning fantastik janr namunalari yaratgan paytida mufassal tarixiy voqealar, geografiyalar hamda siyosiy manzaralarni fantastik janrning bir qismi deb hisoblanar edi. Tolkin esa bu tushunchalarni yanada mukammallashtirdi hamda yuksaltirdi. Tolkin makon hamda zamonni o'zida mujassamlashtirgan ozrularining ildizlarini fantastik asarda mujassamlashtirishni yo'nalish qilib oldi. Uning "On fairy stories" asari fantastik tanqidiy yo'nalishiga asos soldi.²⁶

Tolkinning fantastik asarlari juda ko'p yozuvchilarning asarlarida fundament vazifasini o'tadi va ulkan muvaffaqiyatga erishdi. S.Lewisning "Narniya yilnomalari" ("Chronicles of Narnia"), Merveyn Pekning "Gormenghast series" hamda Ursula K.Le Guinning "Yer dengizi" ("Earthsea") asarlari ulkan muvaffaqiyatga erishdi hamda zamonaviy fantastika ummonining to'liqlanishida ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Tolkinning fantastik asarlari adabiyotda muvaffaqiyatga erishgan eng mukammal asarlaridan hisoblanadi. Tolkinning asarlaridan ilhomlangan holda, ingliz adabiyotida juda ko'p fantastik asarlarining yaratilishiga muhim omil bo'lib xizmat qildi. Li Karter Ballantinning "Fantasy series for adults" jurnali yangi fantastik asarlarni kitobsevarlarga taqdim etish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Bu jurnalda asosan Uilliam Moris, Lord Dunsey, Jorj Makdonald, Hop Mirles hamda Yevangelina Vartonlarning fantastik asarlari nashr qilinar edi.²⁷

Ingliz adabiyotida juda ko'p mashhur fantastik asarlar bo'lishiga qaramay, "Shannara shamshiri" ("The Sword of Shannara") asari 1977-yilgacha mashhur bo'lmagan edi. Bu asar "New York times" gazetasida bestseller asarlarning ro'yxatida turgan. Mashhur fantastik romanlar 1970-yillarning oxiri 1980-yillarning boshlariga to'g'ri keladi va ushbu yillarda ingliz adabiyotidagi eng mashhur fantastik asarlar yaratilgan bo'lib, ular Stepen Donaldsonning 1977-yilda yozilgan "Lord Foul's Bane" nomli asari, Jon Krovleyning 1981-yilda

²⁶AndersonDouglas. Descriptive bibliography. New York. 2003. –30 p.

²⁷The same source. –30 p.

yozilgan “Little Leaf”, Raymond Fiyestning “Magican”, Robert Holdstokning 1984-yilda yozilgan “Mythago Wood” hamda Glen Kukning “Black Company” kabi asarlar Tolkinning asarlaridan oziqlangan holda yaratilgan ingliz adabiyotidagi eng mashhur fantastik asarlardan hisoblanadi.²⁸

1990-yillarda yaratilgan eng mashhur fantastik asarlarga Robert Jordanning “Vaqt mashinasi” (“Wheel of Time”), Tad Uilliamning “Memory, Sorrow and Thorn” hamda Jorj Martinning “A Song of Ice and Fire” bo’lib, bu asarlarni Amerika kino ijodkorlari ommaga film sifatida ham taqdim etganlar.

1980-yillarning boshlarida ingliz adabiyotida fantastik asar yozishda ulkan muvaffaqiyatga erishgan yozuvchilarga Pirs Antony hamda Terry Prachetlarni misol qilishimiz mumkin, shuningdek, J.K.Rovlingning “Garry Potter” romanini aytib o’tishimiz mumkin. Ushbu fantastik asar o’z davrining eng mashhur asarlaridan biri bo’lib, o’z davrida ko’p sotilgan, kassabop asarlaridan biri bo’lgan va unda fantastik janr beqiyos usulda gavdalan tirilgan. Shuningdek, butun dunyoga tanilgan eng mashhur fantastik janrning noyob durdonalari sifatida Xristofer Polening “Meros aylanish jarayoni” (Inheritance Cycle), Jon Falanganning “Rangerning shogirdi” (Ranger’s apprentice) hamda Filip Pulmanning “Uning qora materiallari” (His dark materials) asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Shuningdek, “Narniya saltanati” hamda “Uzuklar hukmdori” asarlari film sifatida ishlangan bo’lib, eng kassabop filmlar sifatida e’tirof etilgan.

1990-yillarga kelib ingliz fantastik adabiyotida ayol yozuvchilar ham fantastik asarlarning beqiyos namunalarini yaratdilar va bu asarlar Tolkinning fantastik asarlaridan biroz farq qiladi. Bularga misol qilib, Lavura Hemitonning “Anita Blake” romani, Karolina Harisning “Janubiy vampir sinoatlari” (Southern Vampire Mysteries) kitoblarini keltirishimiz mumkin.

Yozuvchi muxlislaridan biri Klara Jon Tolkinning ijodiga quyidagicha fikr bildirgan: “Men bu yozuvchi qalamiga mansub “Hobbit” asarini qiziqishsiz

²⁸The same source. – 30 p.

o'qishni boshladim. Bir necha yillardan keyin yozuvchi romanlarining ko'pchiligini o'qib, shak-shubhasiz uning muxlisiga aylandim.”²⁹

Yozuvchi asarlarida juda ajoyib, sehrli, xayoliy, go'zal maskanlar haqida o'qish mumkin va bu joylar uning muxlislariga juda tanish bo'lib, ular uchun ulkan dunyo hisoblanadi. Uning qahramonlarini qiynab turadigan muammo va chigalliklar yoki ichki his-tuyg'ular juda haqiqiy tasvirlangan.

Tolkinning urush davridagi va urushdan keyingi romanlari har kunlik tafsilotlar bilan bezatilganligi John Bounning ichki his-tuyg'ularini jumbushga keltirganini uning quyidagi so'zlaridan bilishimiz mumkin: “Agarda Tolkinning fantastik asarlari dunyo bo'ylab mashhur bo'lmas ekan, demak, u o'z kasbining bilimdoni hisoblanmaydi.”³⁰ Bu kabi ta'sirli fikrlar Jon Tolkinning juda kuchli yozuvchi ekanligini isbotlaydi. U davr muammosini, aynan, ma'lum bir paytdagi umumiy vaziyat va holatlarni ochiq-oydin bayon etib beradigan, inson orzu umidlari, taqdiriga alohida to'xtalib o'tadigan, kitobxonning his-tuyg'ularini jumbushga keltira oladigan o'z kasbi ijodkori va shu o'rinda yaxshi psixolog hamdir. Chunki, insonning ichki hislariga ta'sir qilish uchun ham ma'lum bir vaziyatlarda kitobxonni o'z qahramoni bilan birga xursand bo'lishi, u bilan birga kulishi, unga og'ir damlarda achinishi, hattoki, yig'lashi uchun kuchli ijodkorlik, insonga kuchli ta'sir qiladigan so'zlarni tanlay olish qobiliyati va psixologik bilim zarurdir. Yozuvchining urushdan oldingi romanlari uning kuchli va yetuk uslub egasi ekanligini ifodalaydi.

Umuman olganda, Jon Tolkin ijodini tahlil qilib, uni quyidagicha tasniflash mumkin:

1.1930-yillarda bolalar hikoyanavisi hamda romannavisi, kinoyali va hajviy ocherklar hamda kichik hikoyalar yozuvchisi;

2.1940-yillarda kuchli satirik xususiyatlarni yorituvchi yozuvchi;

²⁹ Tolkein.J.R. The Hobbit. New York, –4 p.

³⁰ Tolkein.J.R. Australian Dictionary of Biography, National Centre of Biography, Australian National University, 1990. Volume 12. (MUP).

3.1950-yillarda o'z davri muammolarini ochib beradigan, his-tuyg'ularni jumbushga keltira oladigan romanlar muallifi.

Jon Tolkin ingliz adabiyotining zabardast yozuvchisi va fentezi janriga qo'shgan hissasi beqiyos. Adibning barcha asrlari boshqa yozuvchilarga o'xshamagan badiiy fantaziya-gasining boyligi va jilokorligiga amin bo'lmasdan ilojimiz yo'q.

2.2. John Ronald Tolkienning “The Lord of the Rings” asari yaratilish tarixi

Ingliz filologi, Oksford universiteti professori J.R.Tolkinning “The Lord of the Rings” (Uzuklar hukmdori) asari epik fantastik janrdagi asardir. Bu asar Tolkinning 1937-yildagi “Hobbit” fantaziya romanining davomi sifatida boshlandi, keyinchalik asar yuqori darajada ishlanib, dunyodagi mashhur asarlar qatoridan o'rin egalladi. Barchamizga ma'lumki, fantastlar kelajak hayot tasviriga ko'proq nazar tashlaydilar. Ularning diqqat-e'tibori kelajak manzaralarini yaratishga qaratilgandir. Bu haqida gap borganda, albatta, o'zga sayyoraga safarlar uyushtirish, ularning sivilizatsiyasi bilan tanishish haqidagi asarlarga to'xtalib o'tish joiz. Fantastlar oldida turgan muammolardan biri ham o'zga sayyora tasvirini va unda yashovchi aholining obrazini yaratishdir. Ularning portreti sayyoraning tabiiy tuzilishi bilan bog'liq holda aks ettiriladi.

Bu asar qanday paydo bo'lgan savolga javob sifatida aytishimiz mumkinki: Tolkin 1928-yilda imtihonlarni topshirayotganda bo'sh qog'ozga bemalol o'tirib shunday yozgan: "Yerning bir teshigida uyma-uy yashagan Hobbit". Ushbu jumla Tolkinni Hobbitlarning "sevimli mashg'ulotlar" va ular nimaga o'xshashligini, nimalar qilishi mumkinligini tasavvur qila boshladi. Ushbu tasavvurlardan, xayoliy to'qimalaridan uning "Hobbit" bolalar hikoyasi, Tolkinning birinchi nashr etilgan asari paydo bo'ldi. 1936-yilda "The Hobbit" ning versiyasi "Allen va Unwin" nashriyot firmasining vakiliga yetib bordi va bir yil o'tib romanni nashr etdi. Roman katta muvaffaqiyat bilan kutib olindi va ko'p nusxada sotildi.

"Hobbit" daromadidan juda suyungan Tolkinning nashriyotchisi uni keyinchalik "Uzuklar hukmdori" nomli asar ustida ishlashga undadi. Tolkin roman yozish uchun o'n ikki yil sarfladi. Uning maqsadi aslida ertak yozish bo'lgan, lekin roman shakllangach, u o'zining Hobbit haqidagi hikoyasini "Silmarillion" qissalarida rivojlantirgan O'rta Yerning ulkan tarixi va mifologiyasi bilan bog'ladi. 1949-yilda tugallangan "Uzuklar Hukmdori" bitta roman sifatida yozilgan, ammo uch jildda nashr etilgan.

1937-1949-yillar oralig'ida yozilgan "Uzuklar hukmdori" shu kungacha eng ko'p nusxada sotilgan uchinchi roman bo'lib, 150 milliondan ortiq nusxada sotilgan. Roman 1954-yil 29-iyuldan, 1955-yil 20-oktyabrgacha bir yil ichida uch jildda nashr etilgan. Tarkibiy jihatdan, roman oltita kitobga bo'lingan, uchinchi jildining oxiriga bir nechta qo'shimcha materiallar kiritilgan. Ba'zi nashrlar butun asarni bitta jildga birlashtiradi. O'shandan beri roman ko'p marotaba nashr qilinib, 38 tilga tarjima qilingan.

Asardagi voqealar rivoji O'rta yerdagi ingliz qishloqlaridan farqli o'laroq, Shiri shahridagi jo'shqin hayotdan boshlanib, voqealar Shimoliy-G'arbiy O'rta yer bo'ylab davom etdi. Asarning asosiy qahramoni Frodo. Uning ittifoqchilari va sayohatchilari: Arogon – inson qo'riqchisi, Boromir – Gondorlik odam, Gimli – mitti jangchi; Elven shaxzodasi – Legolas va sehrgar – Gendelf. Dastlab, Tolkin ikki jildli to'plamning bir jildini, ikkinchisi sifatida "Silmarillion"ni yaratishni niyat qilgan, ammo bu g'oyani noshiri rad etgan. Iqtisodiy sabablarga ko'ra 1954-yil 21-iyuldan 1955-yil oktabrgacha bir yil ichida uchta jild sifatida "Uzuklar hukmdori" ni nashr etishga qaror qilinadi va shu tariqa hozirda tanish bo'lgan "Uzuklar hukmdori" trilogiyasini yaratdi. Asar uch jildan "The Fellowship of the Ring" (Birodarlar uzugi), "The Two Towers" (Ikki minora) va "The return of the King" (Qirolning qaytishi) dan iborat. Tarkibiy jihatdan roman olti kitobga bo'lingan ya'ni ikkita kitob bir jildni tashkil qilgan. Bu asarni keng tahlil qilish chog'ida bilishimiz mumkinki, Tolkin 1917-yildan beri to'plagan mifologik hikoyalar zamiridagi keng ko'lamdagi fantastik voqealar ko'lamining

sayqallanishini, sanoatlashtirish ta'siriga bo'lgan nafratni, shuningdek, jahon urushidagi tajribalarni o'z ichiga oladi.

Yozuvchi qolgan umrini o'z davrining afsonaviy fantaziyalarga bo'lgan qiziqishiga bag'ishlagan. Ko'pchilik boshqa yozuvchilar fantaziya janrida ungacha ijod qilishgan bo'lsada, lekin ko'pchilik kitobsevarlar aynan Tolkinni "zamonaviy fantaziya adabiyotining otasi" deb bilishadi.

Tolkin fantaziyasining haqiqati bu- shafqatsizlikni aks ettirish uchun oyna bo'lib xizmat qilish va shu tariqa u o'z o'quvchilariga xuddi shu haqiqatni o'z olamida anglab yetishlari uchun yordam beradi. Uning "Uzuklar hukmdori" asari haqida gap ketganda, shubhasiz, bu XX asrning eng nufuzli kitoblaridan biridir. Buning asosiy sababi shundaki, Tolkin romanlari inson tabiati haqida qiziqarli va didaktik jihatlarni, chinakam, chuqur va rang-barang qahramonlarni tasvirlash qobiliyatini o'zida mujassamlashtirgan.

J.R.Tolkin yozgan asarlariga berilgan tanqidlardan biri shuki, " u shunchaki bolalar uchun idealistik, allegorik hikoyalar yaratgan" deya e'tirof etilgan. Uning ishining maqsadi va ma'nosi ko'pincha noto'g'ri talqin qilinganligi sababli, Tolkin asarlariga berilgan tanqidining asosiy qismi, "sayoz va ahmoqona sharhlar, ham dushmanlik, ham maqtovlarni ko'rishimiz mumkin".³¹ Shunga qaramay, Tolkinning "Uzuklar hukmdori"asari 2003- yilda Buyuk Britaniyada eng yaxshi romani naminatsiyasida g'olib deb tan olindi.

Uzuk kuchining to'liq hajmi va tabiati bizga hech qachon to'liq tushunarli bo'lmaydi, ammo biz uzukning deyarli chegarasiz kuchga ega ekanligi va uni taqqan odamni mutlaqo o'ziga bo'ysindirish kuchiga ega ekanligini tushunishimiz mumkin. Bu asarning ko'p qahramonlari uzukni o'z maqsadlari uchun ishlatish vasvasasiga tushib qolishadi ammo uzukning kuchiga qarshi turish juda qiyin bo'lgan. Insonning yaxshi yoki yomon niyatidan qat'iy nazar, uni taqqan odam uzukning ta'siri ostida yomon insonga aylanadi. Darhaqiqat,

³¹ Rosebury, Brian. Tolkien: A Critical Assessment. London: St. Martins, 1992. –227 p.

uzukni ushlab turish ham xavflidir. “The Fellowship of the Ring” da uzak tufayli yomon, ochko’z odamga aylanganlarni ko’rishimiz mumkin.³²

Uzak kichkina bo’lishiga qaramay, ramziylik xususiyatiga egadir. Uni taqqan kishiga misilsiz qudrat va boylikka ochko’zlik ramzlarini yaqqol ko’rsatib beradi. Frodo va Semdan tashqari hech bir qahramon uzakning kuchiga qarshi tura olmaydi.

Romanda tasvirlangan voqealardan so’ng Elflarning zamoni o’tib, odamlarning davri boshlanadi. Hikoyaning aksariyat qismi Elflarning o’tmishdagi davrini yodga soladi. Elflar va ularning qirollari O’rta Yerdagi boshqa hech narsa bilan teng kelmaydigan go’zallik va inoyatga ega. Galadriel aytganidek, “Elflarning o’zlari o’lmasalar ham, Sarumanning uzugini yo’q qilish, uchta Elvin uzaklarini zaiflashtiradi va Elflarni O’rta Yerdan chiqib ketishga majbur qiladi”³³. Roman davomida Tolkin bizga uzakning sarguzashtlari, sehrning oxirgi portlashini, undan keyin keladigan dunyoda topilmasligini anglatadi. Keyinchalik bu dunyo Sarumansiz, Lozlorigensiz dunyo bo’ladi.

Asardagi bosh qahramon Bilbo Baggins bo’lib, bu qahramon asar boshida quyidagicha ta’riflanadi: “This hobbit was a very well-to-do hobbit and his name was Baggins. The Bagginses had lived in the neighbourhood of The Hill for time out of mind, and people considered them very respectable, not only because most of them were rich, but also because they never had any adventures or did anything unexpected: you could tell what a Baggins would say on any question without the bother of asking him. This is a story of how a Baggins had an adventure and found himself doing and saying things altogether unexpected. He may have lost the neighbours’ respect, but he gained—well, you will see whether he gained anything in the end”.³⁴

Bu qahramon asar davomida turli ko’z ko’rib quloq eshitmagan sarguzashtlarga duch keladi. Shunday bo’lsa ham barcha to’siqlarni va

³² The same source. –347 p.

³³ The same source. –348p.

³⁴ J.R.R. Tolkien. The Hobbit. New York. 2013. –P.207.

sarguzashtlarni mardonavor yengib o'tadi. Bu qahramon asarda matonat timsoli bo'lib gavdalanadi desak yanglishmagan bo'lamiz. Asarda voqealar rivoji davomida qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan va faqat o'zining ezgu maqsadi yo'lida olg'a boradigan obraz sifatida namoyon bo'lgan.

Asarda bo'y ko'rsatgan qahramonlardan biri Bungo Baggins hamda Belladonna Tuk bo'lib, ular Bilboning otasi va onasidir. Ular asarda quyidagicha ta'riflanadi:

“Not that Belladonna Took ever had any adventures after she became Mrs. Bungo

Baggins. Bungo, that was Bilbo's father, built the most luxurious hobbit-hole for her (and partly with her money) that was to be found either under The Hill or over The Hill or across The Water, and there they remained to the end of their days. Still it is probable that Bilbo, her only son, although he looked and behaved exactly

like a second edition of his solid and comfortable father, got something a bit queer in his make-up from the Took side, something that only waited for a chance to come out. The chance never arrived, until Bilbo Baggins was grown up, being about fifty years old or so, and living in the beautiful hobbit-hole built by his father, which I have just described for you, until he had in fact apparently settled down immovably”.³⁵

Bu ikkala qahramon Bilbo Bagginsning ota-onasi bo'lib, ular asar davomida Bilboni qo'llab-quvvatlab doimo unga yordam beradilar. Bungo Baggins xotiniga atab ajoyib uy quradi va bu uyda asar qahramonlarining juda ko'p sarguzashtlari sodir bo'ladi.

“Undoubtedly that was what brought the dragon. Dragons steal gold and jewels, you know, from men and elves and dwarves, wherever they can find them; and they guard their plunder as long as they live (which is practically for ever, unless they are killed), and never enjoy a brass ring of it. Indeed they hardly know a good bit of work from a bad, though they usually have a good

³⁵ J.R.R. Tolkein. The Hobbit. New York. 2013.-P.174.

notion of the current market value; and they can't make a thing for themselves, not even mend a little loose scale of their armour. There were lots of dragons in the North in those days, and gold was probably getting scarce up there, with the dwarves flying south or getting killed, and all the general waste and destruction that dragons make going from bad to worse. There was a most specially greedy, strong and wicked worm called Smaug".³⁶

Yuqorida keltirilgan parchada voqealar rivojining boshlanishi ifodalangan desak mublag'a bo'lmaydi. Parchada ajdarholar, odamlar, elflar va gnomlardan o'g'irlab ketdilar. O'zlarining oltinlarini olish uchun odamlar, gnomlar va elflar ajdarlarning makoni hisoblangan shimoliy tomonga boradilar. Ularni shmoliy hududda ochko'z, kuchli va yovuz Smag ham kutib turadi. Ushbu parchadan guvohi bo'lganimizdek, asar qahramonlari juda ajoyib sarguzashtlarni boshdan o'tkazishadi.

Agar biz bir zumga romanning boshlanishiga, sehrli uzukning yasalishiga qaytadigan bo'lsak asarda umumiy uzuklar soni yigirmatani tashkil qilgan bo'lib, barchasi sehrlidir. Elvin ustalari tomonidan o'n to'qqizta uzuk yasalgan bo'lib, barchasi o'zlarining jonajon o'lkalarini asrash va himoya qilish uchundir. Oxirgi uzukni Sauranning o'zi "Dum" tog'ida yasagan edi. Maqsad o'n to'qqizta uzukni o'zi yasagan uzuk orqali boshqarish bo'lgan. Uzuklarning uchtasi osmon ostidagi Elven qirollari uchun, yettitasi Gnomlarga o'zlarining tosh zallari uchun, to'qqiztasi o'limga mahkum qilingan odamlarga, bittasi Qora Lordga, Mordorning qora saltanati uchun bo'lgan.

*"Three Rings for the Elven-kings under the sky,
Seven for the Dwarf-lords in their halls of stone,
Nine for Mortal Men doomed to die,
One for the Dark Lord on his dark throne
In the Land of Mordor where the Shadows lie.
One Ring to rule them all, One Ring to find them,*

³⁶ J.R.R Tolkein. The Hobbit. New York.2013.-P.234.

*One Ring to bring them all and in the darkness bind them
In the Land of Mordor where the Shadows lie*".³⁷

Saruman yasagan uzukning xususiyatlari barcha uzuklarni boshqarish va joyi kelganda barchasini yo'q qilish qobiliyatiga ega bo'lgan. Uzluklarning o'n oltitasini yaratilishida bevosita Sarumanning qo'li bor edi, elflarning nazdida esa eng asosiy uchta uzukni Kelebrimbor yakka o'zi yasagan. Asarni o'qish davomida ko'rishimiz mumkinki, Saruman O'rta yerning qolgan hududlarini uzuklar orqali boshqarishga urinishi, Elflar esa asosiy deb bilgan uch uzuk orqali o'zining jonajon o'lkasini yomon kuchlarga qarshi turishini ko'rsatib berilgan.

Sehrgar Gendelfning so'zlariga ko'ra, "sehrli uzuklarning umumbashariy xususiyati shundaki, uzukni taqqan odamga tabiiy hayotidan ko'ra ancha uzoq umr ko'rish huquqi berilardi".³⁸ Elflardan o'n oltida uzukni olgan Saruman qolgan uchta uzuk haqida bilmagan. Kelebrimbor yakka o'zi ishlagan holda ularni Saruman fikriga mos bo'lmagan aniq maqsadlar uchun yaratgan. Roman yozilgan paytda barcha qahramonlar uzukka ega bo'lishga loyiq emasliklarini isbotlaydilar: "Gendelf uzukni olishdan qo'rqadi va u Frodoni uning vasvasasiga tushib qolmasligiga undaydi"³⁹, chunki uzuk uni xayollarini buzishini biladi. Elven qirollaridan biri Galadriel bilan u bir xil qo'rquv xayollarini chulg'aydi.⁴⁰ Ikkalasi ham uzukdan ular orqali katta yomonliklarni qilishidan qo'rqishadi. Isildurning vorisi bo'lgan Aragon Gondorni boshqarish qobiliyatidan bexabar, garchi bu uning taxti bo'lsa-da, uzuk egasi bo'lishi mumkin emas. Boromir, Gollum va Saruman allaqachon uzuk tomonidan bo'ysundirilgan va buning badalini o'z hayotlari bilan to'laganlar. Hatto birinchi navbatda uzukni topib olgan Frodoning amakisi Bilbo Baggins ham oxir-oqibat uzukga bo'ysinadi va hatto yordam taklif qilganida Gendelfga tashlanadi:

³⁷TOLKIEN'S EPIGRAPH TO THE LORD OF THE RINGS

³⁸ Tolkien. J.R.R. The Fellowship of the Ring. New York: Houghton Mifflin. 1999. –334 p.

³⁹ The same source. –336 p.

⁴⁰ The same source. – 339 p.

*‘Bilbo flushed, and there was an angry light in his eyes. His kindly face grew hard. “Why not?” he cried, “And what business is it of yours, anyway, to know what I do with my own things? It is my own. I found it. It came to me.” “Yes, yes,” said Gendelf, “But there is no need to get angry.” “If I am it is your fault,” said Bilbo, “It is mine, I tell you. My own. My precious. Yes, my precious”’.*⁴¹

Bu gapdan shuni anglash joizki, uzukning sehri nihoyatda kuchli, u barcha tirik jonni o'ziga bo'ysindirish kuchiga egadir. Faqatgina uning kuchi

Romanning asosiy elementi – Uzukdir. Uzuk butun O'rta Yerni zabt etishga urinayotgan Qora Lord Saruman tomonidan yaratilgan va unga tegishli. U ko'p yillar oldin yo'qolgan edi, lekin endi uni qidirayotgan xo'jayiniga qaytishga harakat qilmoqda edi. Uzuk bilan Qora Lord Sarumanli yengilmas hisoblanadi. Uni yo'q qilishning yagona yo'li - uni Mordor yerining qoq markazida joylashgan Dum tog'iga olib borib, java ichiga tashlash bo'lgan. Uzuk Frodo bilan xavfsizdir, chunki u boshqalar ustidan hukmronlikni xohlamaydi, lekin Frodoning o'zi ham xavfsiz emas, chunki u dushmanning xizmatkorlari tomonidan qidirilmoqda. Vaqt o'tishi bilan uzuk yaratilish istagida bo'lgan odamga dahshatli ruhiy tushkunlikni keltirib chiqaradi. U Qora Lordning hukmronligi ostida bo'lishi mumkin bo'lgan dunyoni va shu bilan birga yerni asrashga va unda tinch hayotni o'rnatishga harakat qilganlar jamoasining timsolidir.

Tolkin o'z asarlarini boshlashda doimo odatiy ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Bu asarning asosiy hikoyalari va qo'shimchalarni yozishga o'n yildan ko'proq vaqt sarflashi bunga isbotdir. John Ronald Tolkinning mashhur, dunyo bolalari qalbida chuqur iz qoldirgan, roman trilogiyasi “The Lord of the Rings” asaridastlab, birgina maqsad uchun - o'z farzandlar o'qib, mazza qilishlari uchun yozgan. Biroq, bu ajoyib romanning qo'lyozmasi, birinchi navbatda, do'stlari va qarindoshlari, so'ngra ingliz nashriyoti tomonidan iliq

⁴¹ The same source. – 123 p.

qarshi olindi. Bir zumda kishida yangi original asarga qiziqish uyg'otdi, muallifdan qo'lyozmalarini to'ldirish va sur'atlar bilan boyitish so'raladi.

Ertak fonida haqiqatdan ham "kattalar" romani paydo bo'ldi. Bu kitob ilmiy fantastika muxlislari uchun haqiqiy topilma bo'ldi. Dastlab, bu trilogiya tanqidchilar tomonidan bir nechta salbiy sharhlarni oldi, ammo tomoshabinlar Tolkin olamini qabul qilganlaridan keyin vaziyat o'zgardi. Bu kitob shunchaki roman emas, balki yaxshilik va yomonlik, hokimiyatning buzuvchi ta'sirlar to'g'risida, ba'zan kuchsizlar qanday qilib kuchlilarga qodir bo'lmagan narsalarni bajara olishlari haqida falsafiy masal. An'anaviy g'aroyib romanlardan farq qiladi. Bo'lib o'tgan voqealardan so'ng, dunyo o'zining avvalgi holatiga qaytolmaydi va asosiy qahramon Frodo hobbit hech qachon avvalgidek beparvo bo'lmaydi. Dahshatli halqa orqali tekkan yaralar uning yuragidanhech qachon ketmaydi. Elven kemalari bilan birga, u cheksiz dengizdan o'tib, g'arbiy tomonga, barchasini unutish uchun ketadi. Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asari – uzukga egalik ming yildan ko'proq davom etgan urush haqida hikoya qiladi. Uzuk egasi barcha tiriklar va o'liklarning ustidan hokimiyatga ega bo'ladi, lekin shu bilan birga yovuzlikka xizmat qilishi kerak deb ko'rsatilgan! Yosh hobbit Frodo uzukni yo'q qilishga kirishadi. U Mordordan o'tib, halqa qo'yilgan olovli Feyt tog'iga boradi - faqat o'sha yerda, jahannamda uni yo'q qilish mumkin edi xolos. Frodo va uning do'stlari (jumladan, elflar, gnomlar va odamlar) Sarumanga duch kelishadi, u o'zining qimmatbaho uzugini qaytarib olishni va dunyo ustidan hokimiyatga ega bo'lishni xohlaydi.

Muallif kitob haqida shunday deydi: *“Uzuklar hukmdori” o'n yil muqaddam ilk bor chop etilgandan so'ng, uni ko'pchilik o'qib chiqdi. Shu yerga kelganda kitobxonlarning ushbu ertak va uning qahramonlari yuzasidan bildirgan mulohaza vatakliflariga bo'lgan munosabatimni bildirib, asar yozishga meni undagan sabablarga biroz to'xtalib o'tmoqchiman. Mazkur asarni yozishga undagan asosiy sabab ertakchining kitobxon e'tiborini uzoq saqlab, unga quvonch va zavq bag'ishlash, ayrim joylari kuchli ta'sir qila biladigan uzundan-uzoq asar yozib, o'z kuchimni sinab ko'rish bo'ldi. Shaxsan*

*menga o'z his-tuyg'ularim yo'l boshlovchilik qildi, garchi ko'pchilikka bunday yo'l boshlovchi pand bergan bo'lsa-da. Ayrim kitobxonlar asarni zerikarli, be'mani, e'tiborga arzimas deb topishgan bo'lsalarda, ular bilan baxslashmayman, chunki ularni qiziqtiradigan kitob yoki kitoblarga nisbatdan men ham shu fikrdaman. Biroq asarimni yoqtirgan kitobxonlarning nuqtai nazaridan qaraganda ham ertakda kamchilik va nuqsonlar oz emas. Aftidan uzundan-uzoq ertakda hammani baravar qanoatlantirib bo'lmaydigan ko'rinadi deydi".*⁴² Kuzatishimiz mumkinki, ayrim boblaryoki lavhalarni kitobxonlarning bir guruhi tomonidan sayozroq deb topgan bo'lsa, boshqa bir guruhiga juda yoqqan. Asosiy tanqidchi asar muallifining o'zi bo'lib, ertak tahriridagi katta-kichik nuqsonlarni aniq ko'ra biladi, lekin u kitobni qayta ko'rib chiqish yoki boshqatdan yozishga majbur emasligi bois, ushbu nuqsonlar borasida indamay, ayrim kitobxonlarning mazkur ertak juda qisqa chiqqani borasida bildirgan fikrini ta'kidlab o'taveradi.

Kitob zahirida ichki, qandaydir tag ma'noga keladigan bo'lsak, asar muallifi unday ma'noni umuman ko'rmaydi. Ertak majoziy ham, muayyan davrga ham ta'luqli emas. Ertak mazmunan yiriklashib borgani sari o'tmishga ildiz otib, kutilmagan darajada shoxlab boradi, lekin uning asosiy mazmuni Uruk bilan "Hobbit" o'rtasida aloqa bo'lganday, Urukning muqarrartanloviga asoslanadi. Asarning eng muhim bobi – "o'tmish ko'lankasi"- ertakning birinchi bo'lib yozilgan boblari jumlasiga kiradi. Ushbu bob 1939-yil ommaviy qirg'in haqida xabar berishidan ancha ilgari yozilgan bo'lib, asardagi kelgusi jarayonlarning asosiy yo'nalishi, go'yo ushbu qirg'inning oldi olinganday rivoj topadi. Mazkur ertak manbasi muallif ongida chuqur joylashgan bo'lib, 1939-yili boshlangan urush va uning oqibatlariga hech qanday aloqasi yo'q.

O'tgan ikkinchi jahon urushi ertakdardagi urushga na jarayonni va na oqibatlari ila mos keladi. Agar urush mazkur romanni yozilishiga turtki bergan bo'lib, hech shubha yo'q-ki, uruk Sarumanga qarshi qo'llanilgan, yo'q qilinmay bo'ysundirilgan, Barad-Dur esa vayron qilinmay, bosib olingan bo'lar edi. Boz

⁴²Tolkien, J.R.R. "The Lord of the Rings". 1954. –12 p.

ustiga, Uzukni qo'lga kirita olmagan Sarauman Mordorda Uzukka ta'alluqli yetishmayotgan ma'lumotlarni topgan. uzukni o'ziniki qilib olgan va O'rta yerning qallob hukmdorini taxtdan ag'dargan bo'lar edi. Bunday kurashda ikkala tomon ham hobbitlardan nafratlanib, ushbu pakana xalq hatto qul sifatida ham uzoq yashamagan bo'lar edi.

J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida o'rganilishi kerak bo'lgan juda ko'p qiziqarli omillar mavjud. Diqqatga sazovor bo'lgan omillardan biri bu do'stlik mavzusidir, bu asarda asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Mavzuni o'rganish uchun Tolkinning kitoblari turli xil do'stlikning xususiyatlarini umumiylikni o'rganish juda muhimdir. Tolkinning o'zi do'stlikni juda yuqori baholaganga o'xshaydi va u ba'zi elementlarni o'z hayoti davomida bunday munosabatlarning muhim omillari sifatida ta'kidlagan ko'rinadi. Shunday qilib, Tolkinning do'stlik haqidagi o'z qarashlarini kitoblardagi munosabatlar bilan taqqoslash orqali ushbu omillar ochib berilgan. Tadqiq qilingan deb hisoblanadigan yana bir qiziqarli omil - bu uning yozuvida turli xil rang ramziy ma'nolaridan foydalanish. Asarning so'nggi bobida belgilar bilan va tabiatni tasvirlashda turli xil ranglardan foydalanish faktlari ko'rish mumkin.

Ertakning majoziy, muayyan davrga ta'alluqli bo'lishini yoqtiradiganlar nuqtai nazaridan ham ko'plab o'zgarishlar kiritilgan bo'lishi mumkin edi. Muallif kitobxonning tafakkuri va tajribasiga monand jihati bilan birgalikda chin yoki yolg'ondakam tarixni avfzal ko'rdi. Muallif, tabiiyki, o'z tajribasi bilan batamom daxlsiz qola olmaydi, lekin ushbu tajriba asosidan asarningeng boshidan foydalaniladigan yo'llar juda murakkab bo'lib, ushbu jarayonni tushunishga urinishlar, nari borsa jumboq sifatida shakllanadi. Asar muallifi va tanqidchilar chindan ham urushning kuchli ta'sirini boshdan o'tkazishlari mumkin. Biroq yillar o'tib, 1914-yili boshlangan urushda boshdan kechgan ruhiy larzalar 1939-yili urushdagi larzalardan kam bo'lmagani ko'p hollarda unutib qo'yiladi." *Urush yakunlangan 1918-yilga kelib bir nafargina do'stim*

omon qoldi, qolgan barchasi halok bo'ldi”, deydi muallif.⁴³ Yoki boshqa, yanada achinarli holatni olaylik. Ayrimlar asar oxiridagi “Shirni tozalash” bobini Angliyada qaror topgan vaziyatga o'xshatishdi. Bu mutlaqo noto'g'ri taxmin. Ushbu vaziyat asar yozishda ko'zda tutilga umumiy rejaning muhim ahamiyatga ega qismi sanaladi, garchi hodisalar, kitobni yozish jarayonida, Sarumanning tabiatiga mos tarzda biroz o'zgargan bo'lsada. “Uzuklar hukmdori” yangi tahrirda chiqadigan bo'lgach, kitobni qayta ko'rib chiqish uchun imkon paydo bo'ldi muallifga. Kitob tahriridagi birmuncha xatolar va nomuvofiq joylarni tuzatgan, ayrim chuqur fikrli kitobxonlar e'tibor qilgan ma'lumotlarni bir necha bandlarga bo'lib havola etdi. Kitobxonlarning barcha tanbeh va takliflarini oldindan yig'ib yurganligi uchun asar mukkamalligiga intilganini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib, “The Lord of the Rings” ning nusxalari soni 200 milliondan oshdi. Zamonaviy yozuvchilar fantaziya janrining kitoblari bilan solishtirilganda, yozuvchi asarlari sotilishi va katta muvaffaqiyat bilan qayta nashr etib kelinmoqda. Yozuvchi fan klubi yarim asr ilgari tashkil etilgan va bugungi kunda uning a'zolari soni o'sib bormoqda. Professor Tanson fan kechalari uyushtirib turadi, teatrdagi asar sahnalashtirib, yosh aktyorlar mahorati sinab ko'riladi, fantaziya janridagi asarlar adabiyot muxlislari tomonidan taxlil qilinadi, orklar, gnomlar, elflar tili yosh olimlar tomonidan o'rganiladi.

“Hobbit” va “Uzuklar hukmdori” dunyo bo'ylab sotilgan eng mashhur kitoblar orasida o'z o'rnini egallagan asarlardir. “Uzuklar hukmdori” trilogiyasi rejissori Piter Jekson tomonidan suratga olingan va juda mashhur va ommabop bo'lgan. Dunyo bo'ylab mukofotlarga sazovor bo'lgan. Unda mashhur aktyorlar jamoasi jumladan, Ian MakKellen, Ilyos Vud, Kate Blanchett va Viggo Mortensen va boshqalar ishtirok etadilar. Filmning birinchi qismi 2012 yil oxirida chiqarilgan. Muallifning romanlari yigirmanchi asrning jahon madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular bir necha marotaba kinolarda

⁴³Tolkien, J.R. Descriptive bibliography. New York. 2003. –30 p.

animatsiya, audio-viktorina, kompyuter o'yinlari va teatr sahnalari uchun mo'ljallangan.

Shuningdek, asarda shunday afarizmlar borki, ular nafaqat adib yashagan davrga, balki hozirgi davr uchun ham muhim ahamiyatga ega. Quyida shundan ayrimlarini keltiramiz:

- *Yolg'on zamirida haqiqat yashirilgan holatlar ham tez-tez uchrab turadi*".⁴⁴

- *"Oqillik- qolgan barcha yo'llar fikr tarozisidan o'tkazilgan bo'lib, tanlangan yo'lning, haqiqatan ham, zarur yo'l ekanligini e'tirof etishdan iboratdir, garchi soxta umidni pax-paxlayotganlarga ushbu oqillik aqldan ozishday ko'rinsa-da. Aqildan ozish egnimizga kiyilgan himoya plashi, dushman ko'zi oldida tortilgan parda bo'lsin, maylida. Zero, yov ham oqil bo'lib, o'z yovuzligi ila mavjud yo'llarni fikr tarozisidan o'tkazadi*".⁴⁵

- *"Dunyoning chindan ham xavf-xatarga to'lib-toshgan, yovuzlik makon topgan joylari ko'p, ammo unda go'zal joylar ham bor. Garchi endi muhabbat ko'p joylarda musibat-la uyg'unlashib ketgan bo'lsada, dunyo batamom yovuzlashib ketmagan. Oramizda ko'lanka barham topib, yana tinchlik qaror topishi haqida kuylaydiganlar ham ko'p*".⁴⁶

Yuqoridagi jumladan ko'rinib turibdiki, asarda ta'riflangan voqealar (garchi ko'proq xayolot mahsuloti bo'lsa-da) tom ma'noda ezgulik va yovuzlik orasidagi ramziy kurashlardan iborat ekanligi va bu kurashlarda mehr-muhabbatning, adolatning, ezgulikning, haqiqatning doimo g'olib chiqishini tasvirlagan

Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, J.R.R.Tolkinning adabiyotda fentezi janrini yaratishda qo'shgan hissasi beqiyos. Uning "The Hobbit", "The Lord of the Rings" asarlari bunga yaqqol da'lil demakdir. U umri davomida izlanishlari

⁴⁴ Tolkien.J.R. "The Lord of the Rings". –383 p.

⁴⁵ The same source. –387 p.

⁴⁶ The same source. – 499 p.

natijasida dunyo olimlarini hayratda qoldirgan shaxs. Barcha asarlari dunyo olimlari tomonidan tahlil qilindi va o'zlarining asarlarini yaratishda asosiy manba sifatida foydalanishdi. Adabiyotdan tashqari filalogiya tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi uning hozirda ishlatilmaydigan oldingi qo'lyozmalarni o'qishga va asarlarida o'z dunyosining ta'savvuriy xayolot dunyosini amalda sinashiga imkon yaratdi. Uning "The Lord of the Rings" (Uzuklar hukmdori) asarini o'quvchi o'qish mobaynida adolatning, haqiqatning, Vatan ozodligi uchun kurashishning, vatanparvarlikning va insoniylikning, jaholat ustidan qilgan g'alabasiga guvoh bo'lasiz.

Jon Tolkin o'z uslubiga ega serqirra ijodkordir. Uning ijodini o'rganish va tahlil qilish bir qator tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi. Zero, uning fantastik asarlari dunyo bo'ylab mashhur bo'lib, o'zining son-sanoqsiz muxlislariga egadir.

Barchamizga ma'lumki, so'z adabiyotda asosiy qurol vazifasini bajaradi. Har bir ijodkorning mahorati u yaratgan asardagi so'zning qudrati bilan o'lchanadi. Badiiy adabiyotda har bir ijodkor o'z asarini yaratish jarayonida so'zning qudrati yordamida kitobxon qalbiga kirib borishga intiladi. Tolkinning ham fentezi janrini yuksalishiga o'z hissasini qo'shdi. Uning fantastik qarashlari, asarlaridagi ramziylik xususiyatlari tahlil qilindi. Ilmiy fantastika va fentezi janri xususiyatlari va farqli jihatlari ochib berildi.

Ramzlar xususiyati folklorda ham keng qo'llanilganligini yuqoridagi tahlillar orqali ham bilib olishimiz mumkin. Misollardan ko'rinib turibdiki, har bir asardagi ramzlar kitobxonning ma'naviy olamini boyitish bilan bir qatorda unga estetik zavq ulashadi.

Tolkinning simvolikasi boshqa hech qaysi yozuvchi asarlaridagi ramzlar bilan taqqoslab bo'lmaydi. Umuman o'zga dunyo, boshqacha fantaziyaga boy qarashlar orqali yanada yoritilganligini tahlil qildik.

Tolkin asardagi mayda detallardan tortib, mazmuniga ham yuksak qarashlar bilan yondashganligini guvohi bo'ldik. Bu esa, uning o'z kasbiga

bo'lgan fidokorligining dalilidir. Albatta, inson o'z kasbini sevgandagina, o'z ishining asl mutaxassisiga aylanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ingliz adabiyotining yorqin namoyondalaridan bo'lmish Tolkin ham o'z asarlarida o'zining so'z tanlash mahorati orqali kitobxon qalbiga kirib borgan. Albattaki, har bir yozuvchi o'z asarlarini dunyoga keltirishda asarni yanada tasirli va emotsiyaga boy qilib yaratishida kishini e'tiborini jalb qiladigan va uni o'ziga bog'laydigan misralardan, badiiy uslublardan, turli xil stilistik vositalardan va ramzlardan foydalanishga intiladi, chunki ushbu vositalar yaratiladigan asarlarning rang-barangligini, serjiloligini hamda ruhiyatini yanada go'zallashtirishini qalban his qilib turadi. Tolkinning mashhur asari hisoblangan "The Lord of the Rings" asarining yaratilish tarixini ochib berishga harakat qildik. Shu bilan birga boshqa yozuvchilar ham uning asarlaridagi qiziqishi yuqoriligini va o'zlarining asarlarini yozishda Tolkinning asarlari tayanch bo'lib xizmat qilganligini guvohi bo'ldik. Ko'zdan kechirar ekanmiz, bunday asarlar orqali ijodkor biz kitobxonlarning qalbida o'zlarining ana shunday asarlari bilan mangu yashaydi.

III Bob. "The Lord of the Rings" asarida ramzlar ifodasi

3.1. Rang ramziyligi va ularning qahramon bilan bog'liqligi

J.R.R. Tolkin shunchaki bir qator romanlar yozmagan u o'z asarida paydo bo'lgan barcha irqlar uchun batafsil tarix va til yaratgan. Uning bu ulkan sa'y-harakatlari va har bir tavsilotga urg'u bergani sababli haqiqiy his etadigan O'rta Yerni o'ylab topgan dunyo yaratilishiga olib keldi. Tolkinning "The Lord of the Rings" asarini o'qish davomida muallif bir necha rang ramziyligidan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ranglar haqida to'xtaladigan bo'lsak:

Rang tabiatda mavjud bo'lgan barcha narsalarning xarakterini va go'zalligini aks ettiradi va uzoq vaqtdan beri ular bilan bog'liq bo'lgan turli xil fikrlar va his-tuyg'ularning aksi bo'lib kelgan. Shuning uchun odamlar ranglarga

katta e'tibor berishdi va uning xususiyatlari haqida ma'lumot olishga harakat qilishdi.

Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy "Falsafiy savollar va ularga javoblar"da "rang nima?"degan savolga shunday deb javob beradi. Agar so'ralsa, "rang - bu yorqin tananing chegarasi va u tananing yuzasida aks etadi".⁴⁷

Rang tabiat elementlari va obyektlari o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan kommunikativ qiymatga ega bo'lishi mumkin; biron bir hodisani, obyektini yoki mohiyatni anglatuvchi va ma'lum bir tuyg'uni yetkazadigan va mos keladigan his-tuyg'ularni ifoda etuvchi ramziylik xususiyatiga ega.

Rang tabiiy ravishda tasvirga ziddir, shuning uchun ilqlik (qizil), sovuq (ko'k), yaqin (sariq), uzoqlik (ko'k), yengil (oq), og'ir (qora) kabi ekspressiv xususiyatlar vaqt o'tishi bilan barqaror ma'noga ega bo'ladi. Biroq, rang tizimining hissiy ta'sirini baxolashda, rasmlar ba'zan musiqiy atamalarga murojaat qilishadi, chunki sof tasviriy lug'at "issiq, sovuq, rang-barang, yorqin, shaffoflik" juda cheklangan ta'riflarni beradi, ular ma'naviyatga ta'sir qilmaydi. Rangni idrok etishga yordam beradi.

Etnograf L.Mironova mifologik ta'savvurida oq, qizil va qora ranglarning umumiy ma'nolar haqida shunday yozgan: " Ibtidoiy odam qizil rangda - qon, olov, issiqlik va quyoshni ko'radi".⁴⁸

Shunday qilib, roman o'quvchiga badiiy adabiyot elementlari turli xil belgilar va stilistik jihatdan strukturaning keyingi rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Simvolizm ko'pincha yozuvchilar tomonidan o'z asarlarini takomillashtirish uchun ishlatiladi. Simvolizm adabiy asarning gullab-yashnashi va rangliroq ma'nosini chuqurroq his qilishnashiga yordamlashadi.

Adabiyotda ranglarning ramziy ma'no-mohiyatini ochib berish, tasnif etish, struktural va semantik qatlamlarini o'rganish juda murakkab. Chunki ranglar u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odati, marosimi, qadimoy qarashlari bilan chambarchas bog'liq va hamisha bir qolipga

⁴⁷Форобий Абу Наср. Фалсафий саволлар ва уларга жавоблар. – Тошкент: Фан, 1953. –74-б.

⁴⁸ Миронова Л.Н. Цветоведение. – Минск: Высшейшая школа. 1984. – 19-25с.

sig'maydi. Ma'limki, adabiyot birinchi galda so'z san'ati hisoblanadi va ularning asosiy obyekti inson qalbi, tafakkurida kechuvchi jarayonlarni badiiy tasvirlash orqali insonyat kamolotiga xizmat qilishdir. Ushbu jarayondaranglar ham dunyo adabiyotshunosligida ranglarga e'tibor kuchli. Adabiyotda ranglarbirinchi galda ramziy mazmun tashiydi. Bu holat folklorda qo'llanuvchi ranglar simvolikasini tadqiq etishdan avval adabiyotshunoslikda ramz yoki simvol nima deb qo'yilgan savolga aniqlik kiritish talab etiladi.

Ushbu o'rinda dastlab murojat etiluvchi manba adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug'atlari bo'lishi tabiiy. Chunki bu turdagi lug'atlarda atamalarga imkon qadar qisqa va aniq ta'rif berishga harakat qilinadi. O'zbek adabiyotshunosligida amalga oshirilgan lug'atlarda, asosan, adabiyot manbalari misolida umumiy xarakterda berilgan ta'riflar mavjud. Jumladan, N.Hotamov va B.Sarimsoqovning simvolga bergan ta'rifi quyidagicha: "Ramz, simvol – obrazli tafakkur maxsuli, hamma tomondan bir xil tushunilishga erishish oqibatida vujudga keladi. Ramz narsalarning yetakchi xususiyatlar,asosiy funksiyalar orqali shunga o'xshash narsa yoki predmetlarni tasavvur qilish, ya'ni narsa yoki voqealar o'rtasidagi shartli o'xshashliklarning barqaror tushunchalarga aylanishi oqibatida paydo bo'ladi. Masalan, quyosh yorug'lik ramzi. Yorug'lik esa ozodlik, baxtiyorlik hayot ramzi va boshqalar".⁴⁹D.Qurbonov tomonidan chop etilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da simvolning quyidagi ta'rifini kuzatish mumkin: "Badiiy adabiyotda mohiyatan allegoriyaga yaqin bo'lgan ko'chimning bir turi sifatida simvol (ramz) ham qo'llanadi. Simvolning allegoriyadan farqishundaki, u muayyan kontekst doirasida ham o'z ma'nosida va ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, Cho'lpon she'riyatidagi "yulduz", "bulut", "bahor", "qish" obrazlari buning yorqin misoli bo'la oladi".⁵⁰

⁴⁹Хотамов Н.Саримсоков Б. Русча-ўзбекча адабиётшунослик терминларининг изохли луғати. Тошкент. 1983. –293-294б.

⁵⁰Мамажонов З. ва бошқалар.Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр. 1997. –400 б.

Ayni paytda rus adabiyotshunosligida A.Kvyatovskiy,⁵¹C.C.Averinsev⁵², L.Timofeyev, N.Vengrov⁵³ muallifligidagi lug'atlarda simvol atamasiga turli xil yondashishgan. Ammo simvolning asosiy belgi va xususiyatlarini ko'rsatishda fikrlar o'zaro kesishadi, ma'lum o'rinlarda farqlanadi.

Rus folklorlari V.I.Yeremina, N.P.Kalpokovalarning tatqiqotlarida keltirilgan ta'riflar bevosita rus xalqi qo'shiqlari misolida aytilganligi bilan xarakterli. Jumladan, V.I.Yeremina: "... ramz ostida ma'lum poetik tizimda munosabatlarning doimiy doirasini ko'rsatuvchi va tasavvur bo'yicha jiddiy farqlanuvchi fikr tushuniladi"⁵⁴ deb yozadi. N.P.Kolpakova esa: "U yoki bu ramziy ma'nolarni alohida tushunchalarga bog'lashga urunish befoyd. Turli daraxtlar va gullar qo'shiqlarda badiiy obraz sifatida kelishi va har bir qo'shiq matnidan kelib chiqqan holda g'amgin yoki quvnoq ma'no berishi mumkin"⁵⁵ deb yozgan. Ayni fikrlar bir-birini to'ldirishi folklore materiallari misolida aytilganligi bilan xarakterlidir.

O'zbek folklorshunosligida ramz masalasiga nazariy nuqtai nazardan yondashgan tatqiqotlar qatorida Sh.Turdimov va J.Eshonqulov, D.Rajabovlarning ishlarini keltirib o'tish mumkin.

J.Eshonqulov "Folklor: obraz va talqin" kitobida folklordagi ramziy, timsoliy tafakkur asoslari va uning badiiy ko'rinishi talqinlari yuzasidan fikr-mulohazalarni bayon etgan. Avvalo, olim miflarning tili ramz tili ekanligini, ibtidoiy odam tasavvurida dunyo ramzlar orqaliqabul qilinib, baholanib, munosabat bildirilganligini asotir va ertak materiallariga tayanib qayd etadi.⁵⁶

Biz folklordagi rang simvollarini ibtidosi, semantik doirasini o'rganar ekanmiz, ajdodlarimizning olam, odam haqidagi fikr –mulohazalari, o'y-kechirmalarini anglab yetamiz. Shu nuqtai nazardan olimning timsoliy

⁵¹Квятковский А.К. Поэтический словарь. – М, 1966. – 263 с.

⁵²Краткая литературная энциклопедия.Т.6. – М, 1971. – 826-831 с.

⁵³Тимофеев Л., Венгров Н. Краткий словарь литературных терминов. – М,1952. –22 с.

⁵⁴Еремина В.И. Поэтический строй русской народной лирика. – Л,1978. – 193-194 с.

⁵⁵Колпакова Н.П. Русская народная бытовая песня. М.-Л, 1962. –206-207с.

⁵⁶Eshonqulov J.Folklor: obrazvatalqin – Qarshi: Nasaf,1999. –67 b.

mushohada tabiati xususidagi “Timsol –tashqi dunyoning ichki dunyomizda, qalbimizda va ongimizdagi aksidir”⁵⁷ kabi fikrlari g’oyat ahamiyatli.

Demak, ichki dunyomizda o’ziga xos qabul qiluvchi xususiyat bor. U tashqi dunyoni ramzlar, timsollar orqali, ya’ni o’zicha idrok etib qabul qilishga moslashgan. Inson tug’ilgandayoq dunyoga shunday ruhiy imkoniyat bilan kelgan. Ilk odamlar tabiat va koinot sirlarini timsollar orqali qabul qilganlari bejiz emas.

Ibtidoiy odam sel, bo’ron, olov, to’fonni ko’rganida ular qarshisida o’zining ojizligini his qilgan va vahimaga tushgan. Quyosh tanasini yayratganda quvongan. Natijada zulmat –vahima, yorug’lik –quvonch timsoli bo’lib qolgan. Mana shu vahima va quvonch inson ichki dunyosining tashqi dunyoga nisbatdan timsoli edi. Bundan tashqari zulmatni dushman, yorug’likni do’st deb bilgan inson ana shu ikki timsolga ezigulik va yovuzlik ma’nosini ham yuklagan. Chunki ibtidoiy odam uchun abstrak tushunchalar yo’q edi. B.M.Melitinskiy aytganidek, u dunyoni tasavvur orqali anglar, ularvositasida munosabat qilar edi. Demak, timsol va tasavvur egizaklar edi.

Shu sababli har bir timsol asosida inson tasavvurlari va kechirmalari yaratiladi, ularning qay tarzda, qachon paydo bo’lganini bilish timsollarni aniq, ilmiy to’g’ri sharhlash imkonini beradi.

Folkloridagi barcha ramziy va timsoliy obrazlar qatorida rang timsol va ramzlari ham insonning tashqi dunyoni “qayta ishlab” qabul qilishga moslashgan ichki olamining ifodasi bo’lib xizmat qiladi. Mohiyatda esa: “Xalq ijodida Yovuzlik va Ezgulik o’rtasidagi kurash ham timsollar tili bilan bayon qilinganki, uni sharxlash ajdodlarimizning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari bilan tanishish imkonini beradi”.⁵⁸

San’at, folklor asarlari mohiyatidan kelib chiqilgan bu fikrlar rang ramzlari mazmuni, ularning u yoki bu asarda ifodalab kelayotgan poetic ma’nolarini aniqlashda, tahlil etishda muhim o’ringa ega.

⁵⁷O’shaasar. –13b.

⁵⁸Eshonqulov J.Folklor: obraz va talqin – Qarshi: Nasaf,1999. –67b.

Folklorshunos Sh.Turdimov o'zbek xalq lirik qo'shiqlarida poetik ramzlarni o'rganar ekan, avvalo, ramz tushunchasi va poetik ramzlarning tabiati, adabiyotdagi ramziy obrazlarning umumiy va xususiy jihatlari, poetik ramzning muayyan folklor janrida namoyon bo'lishiga oid xossalari to'xtaladi. Olimning ushbu nazariy qarashlari rang ramzlar tabiati va ularning ma'lum bir folklore janridagi o'rini belgilashda qo'l keladi. Bu sohalarning barchasidagi "ramz" tushunchasini bir-biriga bog'lab turuvchi yetakchi xossa – ularning har qaysisida ramz sifatida kelayotgan, anglanayotgan narsaning (u nimaiki bo'lmasin) o'zida bir qancha tushunchalarni jamlab, turg'un assotsiatsiya uyg'otishidir"⁵⁹, - deb yozar ekan muallif ramzlarning turmushda, fanda, adabiyotda va san'atda o'ziga xos ravishda namoyon bo'lishini, turmushdagi ramzlar kommunikativ vazifa bajarishi, fandagi ramzlar ma'lim tushunchalarni bildirishga, adabiyot va san'atdagi ramzlar kechinma, holat va voqelikni badiiy estetik anglatishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Har bir xalqning tafakkur tarixini uning folkloridagi obrazlar – ramz va timsollar asosida o'rganish mumkin. Umuman olganda folklor asarlari tarkibida keluvchi ramziy birikmalarni umumiy ifodalab keladigan ma'nosiga ko'ra quyidagi mavzuviy tiplariga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Mifologik timsollar vositasida ifodolovchi ramziy poetik obrazlar: oq dev, oq momo, qora dev, sariq dev kabi.

2. Ko'zga ko'rinmaydigan, lekin his etish, anglash mumkin bo'lgan mavhum tushunchalarni ranglar vositasida ifodolovchi ramziy poetik birikmalar: qora niyat, baxti qora, yo'li oq, oq fотиha kabi.

3. Vaqt tushunchasini ranglar vositasida ifodolovchi, fasllarga xos belgini aniqlashga xizmat ko'rsatuvchi ramziy poetik birikmalar: oq tong, qizil tong, qora tun, qora qish, ko'klam, ko'm-ko'k bahor kabi va hokazo. Oq tong kunning yorishib kelishini, ya'ni kun boshlanishini ramziy ifodasi, qora tunning eng o'rtasini bildirib keladi. To'g'ri, bunda tong, tun tushunchalari "oq", "qora"

⁵⁹Турдимов Ш. Қўшиқ маъносининг калити (биринчи мақола) // Маърифат. – Тошкент, 2013.– 6-февраль. – №11,(8556). – Б.8-9.

kabi rang aniqlovchilarsiz ham vaqtni anglatadi. Bunda rang aniqlovchilar faqat ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi.

4. Timsoliy makonni ranglar vositasida ifodalovchi ramziy poetik birikmalar. Bunga oq saroy, oq ayvon, qora tepa, qora yer, qizil uy, ko'k osmon va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

5. Inson go'zalligini, mashuqaning jozibali ko'rinishini ranglar vositasida ifodalab keluvchi ramziy poetik birikmalar. Bunga qora qosh, oq bilak, qizil yuz, qizil (la'li, ol) lab, qora ko'z kabilar misol bo'ladi.

6. Ma'lum toifa kishilari o'rtasidagi ijtimoiy tafovutni ranglar vositasida ifodalovchi ramziy poetik birikmalar: oq suyak (zodagonlar), qora xalq (kambag'al, oddiy kishilar) kabi. Bunda rang ko'chma ma'no kasb etib, obrazlilik hosil qiladi.

7. Kasallik belgisini ranglar vositasida ifodalovchi ramziy poetik birikmalar: oq ochmoq, qora chechak, sariq kasal kabi

8. Timsoliy kiyim-kechakning rang vositasida farqlanishini bildirib kelgan ramziy poetik birikmalar: oq ko'ylak, qizil ro'mol, yashil to'n va hokazo. Bularning aksariyati oilaviy-maishiy marosimlarga tegishli ritual liboslar ekanligi bilan diqqatni tortadi va ular insonning bir umr bosqichidan ikkinchisiga o'tishini yoki turli xuhiy vaziyatdagi holatini bildirib keladi.

J.R.Tolkin "The Lord of the Rings" asarida o'ziga xos ranglar politrasiidan foydalanganligini ya'ni kulrang, oq, qora, qizil va yashil ranglaridan. O'ziga xos ramziylikni quyidagi misoldan bilib olish mumkin:

"To make a Secondary World inside which the green sun will be credible, commanding Secondary Belief, will probably require labour and thought, and will certainly demand a special skill, a kind of elvish craft".⁶⁰

"The hobbits themselves, close to Nature in their beautiful green Shire, are particularly fond of bright colors—especially yellow and green. The same colors are used to describe the home of Fangorn, eldest of the ents: two great vessels . . . began to glow, one with a golden and the other with a rich green

⁶⁰ Tolkien J.R. "The Lord of the Rings". —48-49 p.

*light; and the blending of the two lights lit the way, as if the sun of summer was shining through a roof of young leaves. The trees had also begun to glow until every leaf was edged with light: some green, some gold, some red as copper”.*⁶¹

Romandagi mashhur beshta sehrgarning o'zining har xil ranglari bor edi (Oq -Saruman, kulrang-Gendelf, Jigarrang- Radagast va ikkita ko'k rang, keyinchalik Gendelfning oq va Sarumanga “ko'p ranglar” ga o'zgardi).

"The Lord of the Rings" asarida ijobiy ranglaridan biri Gendelfning bilan bog'liqdir ya'ni uning kulrang libosi.

“Kulrang – aql, bilim va donolikning ramzidir. Psixologik nuqtai nazardan, bu rang murosa belgisi sifatida qabul qilinadi qora ham, oq ham emas. Ikkala rang o'rasidagi o'tish sifatida, ajratilgan, neytral, xolis va aniq bo'lmagan rang deya ta'kidlangan. Ranglar ma'nosidagi kulrang konservativ, zerikarli va tushkunlikka ega. Kulrang sochlar esa matonat va barqarorlik ramzi hisoblanadi. Ushbu rang boshqa ranglar bilan aloqa qiladi va ularga juda yaxshi ta'sir qiladi”.⁶²

Ma'lumki, kulrang murosaga kelish rangidir. "Rings Lord" filmining birinchi qismida Gendelf diqqat markazida bo'lmagan. Ammo u har doim nazoratchi rolini o'ynagan. Hatto Frodo Gollumning o'limi haqida o'ylaganida ham, u quyidagi so'zlarni aytdi:

“Many that live deserve death. And some that die deserve life. Can you give it to them? Then do not be too eager to deal out death in judgement. For even the very wise cannot see all ends. I have not much hope that Gollum can be cured before he dies, but there is a chance of it. And he is bound up with the fate of the Ring. My heart tells me that he has some part to play yet, for good or ill, before the end; and when that comes, the pity of Bilbo may rule the fate of many - yours not least.”⁶³

Gendelfning aynan nima uchun kulrang rang bilan bog'liqligini tushunish uchun uning fe'l-atvorini oldin o'rganmoq joiz.

⁶¹Thesamesource. – 92p.

⁶² Миронова Л.Н. Цветоведение. – Минск: Высшая школа, 1984. – С.45

⁶³The same source [p.57](#)

*“Gendelf was shorter in statue than the other two; but his long white hair, his sweeping silver beard, and his broad shoulders, made him look like some wise king of ancient legend. In his aged face under great snowy brows his dark eyes were set like coals that could leap suddenly into fire.”*⁶⁴

Ushbu parchadan biz sehrgarning ko'rinishi uning donoligi, mas'uliyati va yuksakligini anglatadi. Bu, shuningdek, kulrang bilan chambarchas bog'liqdir.

Gendelf J.R.R.Tolkinning "Hobbit" va "Uzuklar hukmdori" asarlarining bosh qahramoni. Bu ikki asarning bosh qahramoni Gendelf O'rta Yerning so'nggi sehrgarlaridan biri hamdir.

*“He wore a tall pointed blue hat, a long grey cloak, and a silver scarf. He had a long white beard and bushy eyebrows that stuck out beyond the brim of his hat. Small hobbit children ran after the cart all through Hobbiton and right up the hill. It had a cargo of fireworks, as they rightly guessed. At Bilbo's front door the old man began to unload; there were great bundles of fireworks of all sorts and shapes, each labeled with a large red G and the Elf rune. That was Gendelf's mark, of course, and the old man was Gendelf the Wizard, whose fame in the Shire was due mainly to his skill with fires, smokes, and lights.”*⁶⁵

Gendelfning yaratilishining asosiy namunasi shlyapa kiyib yurgan oddiy kishi edi. Ushbu personajda bir nechta belgilar birlashtirilgan: Skandinaviya xudosi Odin, dono Prosperous, "Qirol Artur" qahramoni Merlin. Bundan tashqari, Gendelf Kristian obrazini o'zida mujassam etgan va umid bilan uni madaniy shaxsga aylantirgan.

*“Gandalf was shorter in stature than the other two; but his long white hair, his sweeping silver beard, and his broad shoulders, made him look like some wise king of ancient legend. In his aged face under great snowy brows his dark eyes were set like coals that could leap suddenly into fire.”*⁶⁶

⁶⁴ Tolkien J.R. The Fellowship of the ring, Many meetings. –P.290 .

⁶⁵Tolkien. J.R. The Fellowship of the ring, chapter 1. –7 p.

⁶⁶ Tolkien J.R. The Fellowship of the ring, Many meetings p.290

U shuningdek, “Gendelf Grey” – “Kulrang Gendelf” nomi bilan ham tanilganligini yuqoridagi misolda ko’rdik, ammo o’limidan keyin oq Gendelf sifatida qaytgan.

Gendelf beozorligi va yumshoq fe’lligi bilan ajralib turar va hobbitlarni juda yaxshi ko’rar edi. U bu kichik millat tarixda katta rol o’ynaydi va ko’pincha hobbitlarga yordam berish uchun qo’lidan kelgan barcha ishni qilar edi, ayniqsa uzoq qishda ochlik paytida ularga yordam qo’lini cho’zgan. Hobbitlar sehrgarni ham yaxshi ko’rar va hurmat qilishardi. Va ular uni haqiqiy mo’jizaviy inson sifatida qadrlashdi. Ayniqsa, bolalarga uning sehlari yoqardi. Gendelf ularni xursand qilishga harakat qilardi. Ularni do’sti sifatida ko’rardi.

“The fireworks were by Gandalf; they were not only brought by him, but Designed and made by him; and the special effects, set pieces, and flights of rockets were let off by him. But there was also a generous distribution of squibs, crackers, back rappers, sparklers, torches, dwarf candles, Elf fountains, goblin barkers and thunder claps. They were all superb. The art of Gandalf improved with age.”⁶⁷

"Hobbit" va Gendelf asarning mazmunini ochib berishda asosiy qahramonlar sifatida mukammal rol o’ynagan, bu ularning boshqalarga ta’sirini ko’rsatadi. Aynan Gendelf Bilboni xazina ovlashga gnomlar bilan borishga undadi. Sarguzashtlari boshida gnomes Bilboni yoqtirmasdi, chunki u yordam berish o’rniga har doim ularni taqiqlab qo’ydi. Ammo dono sehrgar gnomlarni murosaga qilishga rozi qildi, chunki u Bilboga ishongan va uni yoqtirgan. Bu uning fe’l-atvori mehribonligini ko’rsatadi:

“Gandalf struck a blue light on the end of his magic staff, and in its firework glare the poor little hobbit could be seen kneeling on the hearth-rug, shaking like a jelly that was melting. Then he fell flat on the floor, and kept on calling out, “struck by lightning, struck by lightning!” over and over again; and that was all they could get out of him for a long time. So they took him and laid him out of

⁶⁷ . Tolkien J.R.R. The Fellowship of the ring, chapter 1 p.11

the way on the drawing room sofa with a drink at his elbow, and they went back to their dark business.”⁶⁸

Gendelf shuningdek, asarda nazoratchi rolini o'ynagan. Shirada qolish xavfli ekanligini bilgandan keyin Frododan Rivendelga ketishni iltimos qildi. Shundan so'ng Gendelf Istaridan yana biri Radagast Braun bilan uchrashdi, u Nazgullar uzuk va uning egasini qidirayotgani to'g'risida unga xabar berdi. Gendelf Istarining rahbari Sarumanning oldiga borishga qaror qildi. O'sha paytda Gendelf uzukni o'zi uchun ishlatishni istagan Sarumanning asl maqsadini payqab qoladi. Gendelf rad etdi va Saruman uni minora tepasida qamab qo'ydi. Oxir oqibat, Gendelfni Burgut qutqardi.

Rivendelga kelganidan so'ng, Gendelf uzuk yaratilgan joyda olovda yo'q qilinishi kerak degan qarorga keldi. U yer juda xavfli edi, ular Moriya Trollari Orklari bilan uchrashdilar va jang qildilar. Xazad-dum ko'prigida ular qo'rqinchli Balrog bilan uchrashdilar. Bu yirtqich hayvon edi va hech kim undan qochib qutulmagan.

It came to the edge of the fire and the light faded as if a cloud had bent over it. Then with a rush it leaped across the fissure. The flames roared up to greet it, and wreathed about it; and a black smoke swirled in the air. It's streaming mane kindled, and blazed behind it. In its right hand was a blade like a stabbing tongues of fire; in its left it held a whip of many thongs? ⁶⁹

Dahshatli jang paytida Gendelf ko'prikni sindirdi, Balrog qulab tushganda, qamchisini Gendelfning oyoqlariga o'ralib qoldi. Shunday qilib, u Balrog bilan yiqilib tushdi. Kulrang Gendelf ikki kecha-kunduz Balrog bilan jang qildi. Balrog mag'lubiyatga uchrab, tog' yonbag'ridan pastga tushdi. Jangdan so'ng Gendelfning ruhi ham ozgina vaqt "vaqtdan tashqarida" sayohat qildi. U yerda o'zini hobbitlar hayotini saqlab qolgan ishonchli shaxs sifatida ko'rdi: Frodo va Sem ham xayolida gavdalandi. Gendelf tog' yonbag'rida, bexush holda uyg'ondi.

⁶⁸ . Tolkien J.R.R. "Hobbit", chapter 1 p.37

⁶⁹ Tolkien J.R.R. The Fellowship of the Ring Chapter XVII p.432
The Bridge of Khazad-dum

Burgutlar xo'jayini Gvayxir uni Lorienga olib bordi, u yerda uning jarohatlarini davolashgan va Galadriel unga oq libos kiydirgan. Shundan so'ng, u Gendelf Oq deb nomlangan ■

Sehrli uzukni yo'q qilgandan va urushni tugatgandan so'ng, Gendelf Aragornni shoh Elessar sifatida taxtga qo'ydi. Aragorn Lorien bilan turmush qurgan va ular yerni birgalikda boshqargan.

O'rta yerda 2000- yilni o'tkazgan Gendelf uni Bilbo, Galadriel, Elrond va Frodo bilan qoldirdi. Ular dengizning narigi tomoniga, hech kim borolmaydigan yerlarga borishdi. Ketishdan oldin Gandalf hobbitga dedi:

*“Well, here at last, dear friends, on the shores of the Sea comes the end of our fellowship in Middle-Earth. Go in peace! I will not say; do not weep; for not all tears are an evil.”*⁷⁰

Asarda Oq rang-tozalik va oqillik ramzidir. Ma'lumki oq rang an'anaviy ma'no-mohiyatiga ko'ra tozalik, poklik, ezgulik ma'nolarini ifodalaydi. Najmiddin Kubroning oq rang insonning ruhiy olamiga bog'liq holda talqin qililib, uning poklik va ma'sumalik, to'g'rilik ma'nolarini bildirishi qayd etiladi.⁷¹Bu rangning ijobiy xususiyatlaridan biri tinchlik va osoyishtalik, umid tuyg'usini tarannum etadi.Oq rangning ramziylik ma'nosi- kishiga tartib va barkamollik tuyg'usini beradi. Bu rang qayta hayotini boshlamoqchi bo'lgan insonlarga psixologik ta'sir ko'rsatib, juda yaxshi yordam beradi. Oq rang ichki fikrlarni, his-tuyg'ularingizni va oxir-oqibat ruhingizni tozalashga ko'makberadi. Bu rang insonning butun energiya tizimini tinchlantiradi va kuchaytiradi. Demak, oq rangning ijobiy xususiyatlari – poklik, aybsizlik, soddalik, tozalik, ochiqlik, tenglik va yangi boshlanishlardir.

Oq rangning salbiy ma'nolari juda oz bo'lsa-da, G'arb madaniyatida sovuqlik, yolg'izlik, bepustlik, masofa kabi ma'nolari mavjud. Sharq

⁷⁰ [Tolkien](#) J.R.R. The fellowship of the Ring. The return of the king Chapter XIX The Grey Havens p.405

⁷¹Қорабоев У. Нажмиддин Кубронинг “Латоиф” асари таҳлили // Сино. – Тошкент. 2000. – 1-сон. – 53 б.

madaniyatlarda oq rang o'lim va motam bilan bog'liq. Ushbu madaniyatlarda o'lim odatda bir hayotning tugashini va boshqasining boshlanishini anglatadi. Shunday qilib, oq rang hayotingizdagi tushkunlikning tugashini ko'rsatishi mumkin. Agar muvozanatga nisbatdan foydalansak, u azob-uqubatlar paytida bizni zulmatdan qutqaruvchi ramziylik xususiyati bor. Bu esa barqaror kelajakni va hayoti yaxshi tomonga o'zgarganligini bildiradi.

Tolkin Saruman ismli qahramonida bevosita –oq rangdan foydalangan. "Saruman –dono kishilardan biri. U mening buyruqlarim ijrosini ta'minlovchi va kengashimning boshlig'idir. Uning bilimi chuqurlashar, ammo mag'rurligi ortib borardi va u har qanday ish bilan shug'ullanardi. Elvinlarning katta va kichik uzuklari - bu uning viloyatlaridir. U uzoq vaqtdan beri ishlab chiqarishning yo'qolgan sirlarini qidirib, o'rgangan".

Saruman J.R.R. Tolkienning "Uzuklar hukmdori" asarida Oq Saruman deb tanilgan. U usta sehrgarlar va Oq Kengashning rahbari bo'lgan. "O'rta Yerga kelganidan so'ng, u Kurunir ya'ni "Uquvli odam" degan ma'noni anglatuvchi nom bilan mashhur bo'ldi. U bilimga boy shuning uchun ham oq rang bilan bog'liq deb hisoblanadi. U eng dono sehrgar edi. Valinorda Saruman "Karumo" deb atalgan".⁷²

Gendelf va Sarumanning rang ramziyliklari orqali namoyon bo'lishi kitobxonga yanada estetik zavq beradi. Bu ranglar ularning xarakterini ko'rsatib beradi.

"For I am Saruman the Wise, Saruman Ring-Maker, Saruman of Many Colours. [Gendelf] . . . saw that his robes, which had seemed white, were not so, but were woven" of all colours, and if he moved they shimmered and changed hue so that the eye was bewildered. "I liked white better," I said. "White!" he sneered. 'It serves as a beginning. White cloth may be dyed. The white page can be overwritten, and the white light can be broken.' "In which case it is no longer

⁷² Tolkien, J.R.R. The Fellowship of the Ring. New York: Houghton Mifflin, 1999, -233 p.

white,' said I. 'And he that breaks a thing to find out what it is has left the path of wisdom'".⁷³

Ko'rinib turibdiki, qudratli sehgarning butun dunyoga hukmronlik qilishga bo'lgan istagi uning xarakteridagi o'zgarishlarida yaqqol o'z aksini topdi. Uning kuch va qudratga bo'lgan intilishi uni yolg'onchi va shafqsiz kimsaga aylantirib qo'ydi.

*"Together, my lord Sauron, we shall rule this Middle-earth. The old world will burn in the fires of industry. Forests will fall. A new order will rise. We will drive the machine of war with the sword and the spear and the iron fist of the orc."*⁷⁴

Saruman oq rangdan barcha xilma-xil ranglarga o'tdi, bu uning xiyonatkorligida namoyon bo'ladigan yorug'likning yorilishi natijasida paydo bo'ldi; qorong'u minoradan kelib chiqadigan yovuz kuchlar bilan qilgan savdosi tufayli bir marta yaxshilik darz ketadi. Ammo u hali ham ranglarga ega, hatto singan nurlarini ranglari orqaliyo'q qilgan bo'lsa hamdir. Isen-gardni yo'q qilganidan so'ng, Saruman o'zining jozibali ovozi bilan o'z mavqeyini saqlab qolishga harakat qilganda, rangi xiralashib qoladi:

"...an old man, swathed in a great cloak, the colour of which was not easy to tell, for it changed if they moved their eye or if he stirred'".⁷⁵

"The cloak of the deceptive wizard bears a striking resemblance to the elven-cloaks given to the hobbits in Loth-lorien'".⁷⁶

Ammo Saruman Gendelfning rangidagi o'zgarishlarni tan olmaydi va uni "Gendelf Grey" deb ataydi. Gendelf shunday deydi:

"Behold, I am not Gendelf the Grey, whom you destroyed. I am Gendelf the White, who has returned from death. You have no colour now and I cast you

⁷³ Tolkien.J.R. "The Return of the King". –1338-1339 p.

⁷⁴The same source p.134

⁷⁵ Tolkien.J.R. "The Lord of the Rings". –234 p.

⁷⁶ The same source. – 479 p.

from the order and from the Council".⁷⁷– Bu soʻzlari bilan Gendelf yovuz Sarumanning gapiga nuqta qoʻyadi. Gendelfoʻlimidan keyin qaytganda, oq rangni qabul qiladi.

"...there was a gleam, too brief for certainty, a quick glint of white, as if some garment shrouded by the grey rags had been for an instant revealed".⁷⁸

"Then his cloak drew apart, and they saw that he was clothed in white. His hood and his grey rags were flung away. His white garments shone. He lifted up his staff".⁷⁹

Insonning yosh xususiyatini, navqiron yoshdaligini yoki keksaligini ranglar vositasida bildiruvchi poetik timsollar mavjud ularga: oq soch, oq soqol kabi misollar keltirishimiz mumkin. Asarda ham aynan shu misollarni uchratishimiz mumkin:

"His hair was white as snow in the sunshine; and gleaming white was his robe; the eyes under his deep brows were bright, piercing as the rays of the sun; power was in his hand".⁸⁰

Qachonki, Gendelf deb eʼtirof etishganda, sehrgar rangining oʻzgarishi chuqur oʻzgarishlar sodir boʻlishini anglatadi:

"Gendelf" . . . "Yes, that was the name. I was Gendelf."

"Yes, I am in White," said Gendelf. "Indeed I am Saruman, one might almost say, Saruman as he should have been".⁸¹

Kundan-kun Gendelfning obroʻsi Saruman, Reynjer va Aroganga qaraganda oshib borardi. Endi u kulrang rang bilan uygʻunlashdi:

"The grey figure of the Man, Aragorn son of Arathorn, was tall, and stem as stone, his hand upon the hilt of his sword; he looked as if some king out of the mists of the sea had stepped upon the shores of lesser men. Before him stooped

⁷⁷ The same source. –241 p.

⁷⁸ The same source. –123 p.

⁷⁹ Tolkien.J.R. "The Lord of the Rings". –124 p.

⁸⁰ The same source. –125 p.

⁸¹ The same source. –125 p.

*the old figure, white, shining now as if with some light kindled within, bent, laden with years, but holding a power beyond the strength of kings”.*⁸²

Hattoki, Aragonning taqdiriga shohlik yozilgan bo'lsada oq sehrgarning hukmronligini tan oladi:

*“And this I also say you are our captain and our banner. The Dark Lord has Nine: But we have One, mightier than they: the White Rider. He has passed through the fire and the abyss, and they shall fear him”.*⁸³

Gendelfning kulrangdan-oq rangga o'zgarishi dunyoda yomonlik kamayib, ezgu kuchlarning hukmronligiga olib keladi.

*“I am Gendelf, Gendelf the White, but Black is mightier still”.*⁸⁴

Oq rang nafaqat yangi hayotning boshlanishi, balki himoya va dalda hamdir. Gendelf har doim xavfli paytda paydo bo'lgan va urush paytida nafaqat xalqlar hayotini saqlab qolgan.

“My friend, you had horses, and deed of arms, and the free fields; but she, being born in the body of a maid, had a spirit and courage at least the match of yours. Yet she was doomed to wait upon an old man, whom she loved as a father, and watch him falling into a mean dishonored dotage; and her part seemed to her more ignoble than that of the staff he leaned on.”
-Gandalf to Eomer, of Eowyn”⁸⁵

Ammo Sarumanning asosiy ko'rinishidagi yovuzligi bu- qorong'ilik, rangning yo'qligi; Flodo va Sem kravatda Shelobda ismli o'rgimchakni ko'rishdi. Uning sehri shunda ediki,xotiradagi ranglarni o'chirish qobilyatiga egadir:

*“They walked ... in a black vapour wrought of veritable darkness itself that, as it was breathed, brought blindness not only to the eyes but to the mind, so that even the memory of colours and of any light faded out of thought”.*⁸⁶

⁸² The same source. –133 p.

⁸³ The same source. –133 p.

⁸⁴ The same source. –132 p.

⁸⁵ [Tolkien J.R.R., the Return of the King p.113](#)

⁸⁶ Tolkien.J.R. “The Lord of the Rings”. – 142 p.

Qorong'ulikdan xotiradagi ranglarni yorug'lik orqali xalos qilish mumkin. Zulmat va yovuzlik kuchli bo'lsada, hobbitning yordamisiz bunga erishib bo'lmaydi. Qachonki, Sem o'rgimchakni ko'rganda buni tushunib yetadi:

"... as he stood, darkness about him and a blackness of despair and anger in his heart, it seemed to him that he saw a light: a light in his mind, almost unbearably bright at first, as a sun-ray to the eyes of one long-hidden in a windowless pit. Then the light became colour: green, gold, silver, white. Far off, as in a little picture drawn by elven-fingers, he saw the Lady Galadriel standing on the grass in Lorien".⁸⁷

Tolkin ranglarni tushunishda rassomlik qobiliyatiga tayandi. Buning isboti sifatida "The Lord of the rings" asri yaqqol isbot hisoblanadi. Rangni ramziylash Trilogiya bo'ylab aydentifikatsiyalash belgisi sifatida, ko'tarinki kayfiyatni ifodalash vositasi va ichki axloqiy va ma'naviy holatning tashqi belgisi sifatida atmosfera yaratib, mavzuni yoritadigan motiv yaratiladi. Tolkin O'rta Yerning bo'yoqdorligini dastlabki qarashlaridayoq aks etirganini tezda anglash mumkin. U taqdim etgan sof ranglarning cheklangan palitrasi, dastlabki olamni ranglantiradigan ko'plab bo'rtirishdan qochadi. Tabiiylik, nozik va betakror g'oyalar bilan talqin qiladi.

Asarda "Yashil" rangning simbolikasiga ham e'tibor berilgan. Muallif "O'rta Yer quyoshini" – "yashil" deb ta'svirleydi. Uning fantaziyaga boy qarashlari keng yoritilib berilganligiga, u yerda hamma narsa uning xohishlariga ko'ra jilovlantiriladi. Yashil rang asarda– farovonlik, ishonch, tiklanish, muvozanat va yangilanish ramzlarini bildiradi:

"To make a Secondary World inside which the green sun will be credible, commanding Secondary Belief, will probably require labour and thought, and will certainly demand a special skill, a kind of elvish craft".⁸⁸

"Anyone inheriting the fantastic device of human language can say the green sun. Many can then imagine or picture it. But that is not enough..."⁸⁹

⁸⁷ The same source. –418 p.

⁸⁸ Tolkien J.R. "The Fellowship of the Ring". – 48-49 p.

“Yashil - bu tabiat, hayot va bahor rangi. Eng "tabiiy" ranglar iliqlik va salqinlik muvozanatini o'zida mujassamlashtiradi, "yashil" rangni yoqtirgan odamlar ko'pincha o'zlarini o'ziga xos va muvozanatli xarakterga ega deb bilishadi. Ular mehnatsevar fuqarolar, g'amxo'r ota-onalar, g'amxo'r qo'shnilar - yoqimli, mehribon va saxiy odamlardir”.⁹⁰

Yaponiyada yashil bahorgi qishloq xo'jaligi marosimlarining ramzi hisoblanadi. Evropada esa, muhabbat va umidning belgisidir: S.Eyzenshteyn yashil rang ramziyligini shunday ifodalaydi.

“The color of the revival of the soul and wisdom, it simultaneously signified a moral fall and madness”.

Tolkin o'zining hayoti davomida “Uzuklar hukmdori” trilogiyasida rang ramziylıkları orqali shaxsiyatni belgilovchi belgi, atmosferani va aniq mavzuni yaratadigan vizual xiyla-nayranglardan qochdi. Eng yuqori bo'lgan his-tuyg'ularni ifoda etish vositasi ichki axloqiy va ruhiy holatning tashqi belgisi sifatida o'zining asarida ramzlarga alohida e'tibor berdi. Tolkin O'rta Yerning dastlabki fantaziyalarga to'la asor-antiqalar bilan sezilarli darajada boyitib bergan shaxsdir. Sof ranglarning cheklangan palitrasi, boshlang'ich olamning rang-barangligini ranglar orqali noziklik kasb etadi. U bir xillikdandeyarli qochdi. Xayolga sig'maydigan narsalardan foydalanishi tufayli, kitobxonning fantaziyasini oshirdi.

Ma'lumki, dunyoda g'am-qayg'u degan tushunchalar bo'lmaganda, baxtning qadri qolmasdi. Xuddi shunga o'xshab, oq rang mavjud ekan qora rang unga o'zaro ziddiyatga kelishi ayonlashadi. Shuni ta'kidlash joizki, Farobiy “falsafiy savollar va ularga javoblar” asarida o'zaro zid narsalar haqida to'xtalarkan, “...oq rang- qora rangning yo'qligidan emas, umuman zid narsalarning mavjudligi unga zid bo'lgan narsalar yo'qligidan paydo bo'ladi. Lekin zid narsalarning har birida boshqasining yo'qligi yashirilgandir”, -deya

⁸⁹ The same source. – 50 p.

⁹⁰ M.Ahmadov. “Psixalogiyada ranglar xususiyati”. – 11b.

javob bergan.⁹¹ Bundan anglashilayotirki, qora rangda oq rangning yo'qligi yashiringandir.

